O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

«Himoyaga ruxsat etiladi»
Pedagogika fakulteti dekani,
g.f.n., dotsent
_____
K.M.Boymirzayev
«___» _____ 2018-y.

5111700-boshlang’ich ta’lim va sport-tarbiyaviy ish
yo’nalishi bitiruvchisi
Rafiqova Odina A’zamjon qizining

«Atrofimizdagi olam darslari uchun taqdimotlar tayyorlash»
mavzuidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

«Himoyaga tavsiya etildi»
Boshlang’ich ta’lim metodikasi kafedrasi mudiri
_____p.f.n. B.Sattarov
«___» _____ 2018- y

BMI rahbari:_____
Sh.Xujamberdiyeva

Namangan – 2018

Atrofimizdagi olam darslari uchun taqdimotlar tayyorlash

Kirish

I-bob. Atrofimizdagi olam darslarida ta’lim vositalaridan foydalanishning pedagogik-psixologik asoslari

1.1 Atrofimizdagi olam darslari maqsadi va vazifalari, darslikdagi visual axborotlar tahlili

1.2.O’quv-tarbiyaviy jarayonlarda kompyuter dasturlaridan foydalanish

1.3. Darslarda taqdimotlardan foydalanish holatini o`rganish

Ii-bob. Atrof olam darslari uchun taqdimotlar tayyorlashning uslubiy jihatlari

2.1. Atrofimizdagi olam darslari uchun taqdimotlar tayyorlash

2.2. Olib borilgan anketa-so`rov ishlari va natijalar tahlili

2.3. Taqdimotlar tayyorlash bo’yicha uslubiy maslahatlar

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

Ilovalar

Kirish

Bitiruv malakaviy ishining mavzusining dolzarbligi. Bizni o'rab turgan olamni doimiy ravishda kuzatar ekanmiz, jamiyat va inson kundalik hayotida, zamonaviy kishining faoliyatida ilm-fan yutuqlari natijalari tezkorlik bilan joriy qilinmoqda. Kompyuterlashtirishning global jarayonlari jamiyatning barcha jabhalarini qamrab oldi. Ta'lim tizimi ham bu jarayonlarning bevosita ta'siri ostida o'zgarmoqda. O'quv muassasalari texnik jihozlanmoqda, ma'naviy eskirgan kinoapparatlar, televizorlar o'rnini kompyuterlar egallab, ta'lim jarayonlarida kompyuter va axborot texnologiyalarini faol joriy qilish kechmoqda.

"... Bizning eng katta boyligimiz - bu xalqimizning ulkan intellektual va ma'naviy salohiyatidir. Bu salohiyatni yaratish va yanada ko'paytirishda hurmatli ziyolilarimiz - ilm-fan va texnika namoyandalari, birinchi navbatda qadrli va hurmatli akademiklarimiz, madaniyat, adabiyot va san'at, sport sohalarining vakillari butun vujudini berib, fidokorona mehnat qilayotganlarini biz yaxshi bilamiz va yuksak qadrlaymiz. Ana shu zahmatkash insonlarning ilmiy va ijodiy izlanishlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ular uchun zarur shart-sharoitlar yaratishni biz o'zimizning birlamchi vazifamiz sifatida ko'rishimiz darkor."[1]

O'rta umumta'lim tizimi o'quv-tarbiyaviy jarayonini tashkillashtiruvchi va amalga oshiruvchi yagona shaxs bu o'qituvchidir.

O'qituvchi (murabbiy, ustoz, pedagog) – pedagogik va maxsus kasbiy tayyorgarlikka ega pedagogik faoliyat bilan professional darajada shug'ullanuvchi kishidir. Bu yerda professional so'ziga e'tibor qilish lozim.

Demak, pedagoglar ta'lim jarayonida pedagogik qonuniyatlarni tadbiq etish, o'zining kasbiy burchini ado etishda belgilangan tartiblar asosida faoliyatini sifatli tashkil etishga mas'uldirlar.

Shunday ekan, pedagog shaxsining o'quvchi shaxsini shakllantirishtirih hamda uning fan bo'yicha tayyorgarligiga ta'sir etishida ahamiyati kattadir.

---

[1] Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag`ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi.

O’quvchilarning muayyan fanga qiziqishlari aynan o’qituvchiga, uning dars tashkil etish modeliga, axborotlardan xabardor bo’lishiga ko`p jihatdan bog’liq. atrofimizdagi olam darslari o`qituvchiga mazkur masalada o`z imkoniyatlarini taqdim etadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Ta’limni rivojlantirishning hozirgi bosqichida o’qitishni tashkil etishning vositalarini, shaklini va uslubiyotini yangilab va takomillashtirib borish zaruriyati paydo bo’lgan. Ushbu muammoni hal qilish o’quv jarayoniga ilg’or texnologiyalarni tadbiq etish bilan uzviy bog’liq. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi ana shu texnologiyalarni tadqiq etish, tadbiq etish shart-sharoitlari va imkoniyatlarini o’rganib chiqish, darslar uchun turli ta’lim vositalari, jumladan taqdimot slaydlarini tayyorlash yo’llari va uslublarini hamda ulardan ta’lim jarayonida foydalanish bo’yicha yondoshuvlarini ko’rsatib berishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishida qo’yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- psixologik - pedagogik manbalarni tahlil qilish;
- ko’rgazmali ta’lim vositalaridan foydalanishning psixologik-pedagogik asoslarini o`rganish;
- ko’rgazmalilik tamoyilini didaktik kategoriya sifatida o’rganib chiqish;
- o’quv-tarbiyaviy jarayonda taqdimotlardan foydalanishning nazariyoti va uslubiyoti holatini aniqlash;
- atrofimizdagi olam darslarida taqdimot slaydlaridan foydalanishining uslubiy, psixologik-pedagogik hamda ilmiy-nazariy asoslarini o’rganib, aniqlab olish;
- ta’lim jarayonida taqdimotlardan foydalanish samaradorligini oshirishning didaktik sharoitlarini aniqlash;
- MS PowerPoint dasturida tayyorlangan taqdimotlarni atrofimizdagi olam darslari jarayonida axborotlarni ifodalovchi ko’rgazmali ta’lim vositasi sifatida qo’llashning nazariy va amaliy asoslarini aniqlash;

▪ 1-va 2-sinf atrofimizdagi olam darslarida taqdimot slaydlaridan foydalanish samaradorligini o’rganib, tekshirib chiqish.

Bitiruv ishining obyekti va predmeti. BMI ob’yekti atrofimizdagi olam darslarini o`qitish uslublari, shakllari bo’lib, predmeti kursni o’qitishda foydalaniladigan taqdimot slaydalari mazmuni, foydalanish metodikasi hamda ularni tayyorlash shakl-uslublari hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asosi. O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovninng asarlari va O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning nutqlari, Farmonlari, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, ta`limni isloh qilish bilan bog’liq huquqiy va me`yoriy hujjatlar, xorijiy hamda mamlakatimiz yetakchi olimlarining ilmiy-uslubiy asarlari tashkil qiladi. Sohaga oid ilmiy-uslubiy adabiyotlar, tadqiqotlar va ularning natijalari xizmat qiladi (Ya.A. Komenskiy, K.D. Ushinskiy, Ya.S. Vigotskiy, D.B. Elkonin, V.V. Davidov, G.I. Shukina, A. Amonashvili, V.A. Suxomlinskiy, P. Musayev, M.Abdurahmonov, A.D.Bahramov, A.Soatov, Sh.Sharipov va boshqalar tomonidan sezilarli hissa qo’shilgan.).

Bitiruv ishida quyidagi tadqiqot metodlaridan foydalanildi:

Nazariy metodlar: ilmiy-nazariy va uslubiy, psixologik-pedagogik adabiyotlar tahlili;

- o’qitishda elektron nashrlardagi ma’lumotlarni tahlil qilish;

- taqqoslov-tahliliy metod, sintez, umumlashtirish kabi.

Empirik metodlar: pedagogik kuzatuv metodi, pedagogik tajriba, o’qituvchi va o’quvchilar bilan suhbat, anketa metodi kabilar.

Tizimli metodlar: ma’lumotlarni grafik va jadvalli interpretatsiya qilish metodi, ma’lumotlarni statistik qayta ishlash kabi.

Bitiruv ishining ilmiy yangiligi. Atrofimizdagi olam fani o’quv jarayoniga axborot texnologiyalarni samarali tadbiq etish bilan bog’liq pedagogik muammolarni chuqur o’rganishga qaratilgan. Shuningdek, atrofimizdagi olam

darslari uchun taqdimotlar tayyorlashning yangilangan uslubiyotini tavsiflashdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy-amaliy ahamiyati. Atrofimizdagi olam darslari nazariy asoslarini interaktiv vizual vositalar (taqdimot slaydlari) asosida rivojlantirish, interaktiv taqdimotlardan atrofimizdagi olam dars mashg'ulotlarida samarali foydalanish bo'yicha uslubiy jixatlarini ishlab chiqish, taqdimotlardan foydalanishning uslubiy shart –sharoitlari, darslarni tashkil etish mantiqi, ta'lim metodlari, axbortlarni namoyish qilishdagi aniq uslubiy yo'llar, taqdimotlardan tizimli foydalanish, saralash kabilar muximdir. Ishning mazmuni taqdimotlardan samarali foydalanish bo'yicha uslubiy ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqish va joriy qilishda amaliy ahamiyati katta.

BMIning tuzilishi va hajmi. Mazkur ish kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalarni o'z ichiga oladi. Birinchi bob Atrofimizdagi olam darslarida ta'lim vositalaridan foydalanishning pedagogik-psixologik asoslari deb nomlanadi, mazkur bob Atrofimizdagi olam darslari maqsadi va vazifalari, darslikdagi visual axborotlar tahlili, darslarda taqdimotlardan foydalanish xolatini o'rganishga bag'ishlanadi. Ikkinchi bobda atrofimizdagi olam darslari uchun taqdimotlar tayyorlashning uslubiy jixatlari yoritilgan. BMIning umumiy hajmi 77 betdan iborat. Ishda mazmunga oid ko`plab rasmlar berilgan. Adabiyotlar ro'yxati 57 nomdagi manbalarni o'z ichiga oladi. Bitiruv malakaviy ishi 12114 so'zdan iborat.

I-bob. Atrofimizdagi olam darslarida ta’lim vositalaridan foydalanishning pedagogik-psixologik asoslari

1.1 Atrofimizdagi olam darslari maqsadi va vazifalari, darslikdagi visual axborotlar tahlili

Ma'lumki, boshlang’ich sinflarda “Atrofimizdagi olam” (1-2-sinflarda) va “Tabiatshunoslik” (3-4-sinflarda) fanlari o’qitiladi. Bolalarning atrofimizdagi olamni muntazam o’rganib borishlariga asoslanib, kichik yoshdagi o’quvchilarda tabiat to’g’risida, o’z joyi va barcha mamlakatlarning tabiiy boyliklari to’g’risida bir butun tasavvurni shakllantirish kerak. O’quvchilar Vatanimizning tabiiy boyliklaridan odamlar o’zlarining mehnat faoliyatlarida qanday foydalanayotganliklari bilan tanishishlari lozim. Bunda bolalarga odamlar mehnati tabiat atrof bilan chambarchas bog’liq ekanligini ko’rsatish g’oyat muhimdir.

Shu talablarga ko’ra kichik yoshdagi o’quvchilarga:

- o’zaro bog’liqligi ochib berilgan jonli va jonsiz tabiat to’g’risida aniq bilimlar berish;

- odam organizmi va uning salomatligini saqlash to’g’risida ma'lumotlar berish;

- ularni tabiatda kuzatishlar o’tkazish uquvi va ko’nikmalari bilan qurollantirish;

- tabiatdan oqilona foydalanish va uning boyliklarini ko’paytirishga qaratilgan insonning mehnat faoliyati bilan tanishtirish;

- jonajon tabiatga muhabbat, uni muhofaza qilishga intilishni tarbiyalash kerak.

Boshlang’ich sinflarda atrofimizdagi olam kursini o’qitishning maqsadi atrof-muhit bilan asta sekin tanishtirib borish, u bilan munosabatlarga kirishish, keyingi kurslarida botanika, zoologiya, gigiyena, geografiya fanlarining elementar asoslarini berishdir.

Atrofimizdagi olam darslari o`quvchilar uchun mehnat tarbiyasi maktabi hamdir. Aniq misollarda o’quvchilarni inson mehnati - uning jismoniy va ma'naviy

sihatligining manbai ekanligiga ishontirib, o'qituvchi mehnatga muhabbatni, astoydil mehnat qilish istagini, mehnat ahliga hurmatni tarbiyalaydi. Bu 1-sinfda "Maktab xodimlari mehnatiga hurmat", "Maktab oldi maydonidagi ishlarga qatnashish", "Ishlab chiqarishda band odamlarning kasblari"; 2-sinfda "Kun tartibidagi mehnatning turlari", "Xona o'simliklarini parvarish qilish", "Qurilish, sanoat korxonalarida ishlovchi odamlarning kasblari", "Mavsumlar bo'yicha maktaboldi maydonidagi ishlar" kabi mavzularidir. Mehnat mavzusi o'quvchilarning kompleks tarbiyasida katta o'rin egallaydi.

Atrofimizdagi olam va tabiatshunoslik kurslari uzviy bo`lib, o'zining mazmunlari va metodlari bilan o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalashda katta imkoniyatlarga ega.

Tabiat - dunyo fani va shuning uchun ham tabiatshunoslik darslari o'quv materiali mazmunini yetkazishning yangi metodikasini talab qiladi, uning asosiy maqsadi bilimlar yig'indisini faqat esda qoldirish bo'lib qolmasdan, balki ularni ishonchga aylantirish hamdir. Ishonch insonlarga, atrof olamga bo'lgan munosabatda, odatlarda, ish yuritishda, xulq-atvorda namoyon bo'lishi kerak.

Bunda tabiatshunoslikning turmush bilan aloqasi birinchi o'ringa chiqariladi. O'quvchilarni xalq xo'jaligi rejalari aks ettirilgan davlat qarorlari bilan tushunarli tarzda tanishtirib borish alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu vazifalarni osonlashtirish uchun ko'rgazmali materiallar, diafilmlar, markaziy va mahalliy davriy matbuot materiallari, kino va telefilmlarni (ularni o'qituvchi bilan birga ko'rganlaridan keyin) muhokama qilish, mehnat faxriylari, mashhur paxtakorlar, chorvadorlar, ishlab chiqarish ilg'orlari haqida hikoya qiluvchi kitoblar, o'quvchilar bilan birga rasmiylashtirilgan illustratsiya va statistik ma'lumotlar, turli sohalarda (respublika, viloyat, tuman va shahar bo'yicha) erishilgan yutuqlar to'g'risidagi stendlardan keng ko'lamda foydalanish lozim.

Tabiatshunoslik vositasida amalga oshiriladigan kompleks tarbiya faqat darslardagina emas, balki o'quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqari faoliyatlarida (ekskursiya, sinfdan tashqari mashg'ulot, maktaboldi maydonidagi ishlar va boshqalarda) ham muntazamlilik hamda rejalilikni talab qiladi.

Atrof-muhitga ongli munosabatni tarbiyalash uchun birinchi sinfdan boshlaboq atrof olam bilan tanishtirish bo'yicha mashg'ulotlarda (tabiiy xarakterdagi maqola o'qilgandan keyin) bolalar oldiga amaliy vazifalar qo'yishi zarur.

Ikkinchi sinfda shu predmet bo'yicha bilimlar doirasi kengaytirilayotganda nazariy bilimlar, amaliy mashg'ulotlar (qishlovchi qushlarga yordam, yashil ko'chatlarni himoya qilish, erta gullovchi o'simliklarni qo'riqlash) bilan bog'lanadi.

Respublikamiz xalq ta'limi o'ziga xos rivojlanish davrini boshdan kechirmoqda. Bu o'ziga xoslik, eng avvalo, ta'lim-tarbiya mazmunini milliylashtirish, ya'ni o'zimizning juda boy o'tmish tariximiz, madaniyatimiz, fanimiz, tilimiz o'z mohiyati bilan juda chiroyli, yuksak insoniy, axloqiy mazmunga ega bo'lgan milliy urf-odatlarimiz asosida jamiyatimiz kelajagi bo'lgan yosh avlodni o'qitish baxtiga muyassar bo'lganimizda ko'rinadi. Bu narsa hammamizning qalbimizda g'urur hislarini to'lqinlantiradi. Mana shu sharoit barchamizdan juda katta ko'tarinkilik bilan jamiyatimizning yosh avlodini yuksak vatanparvarlik, xalqparvarlik, milliy g'urur ruhida tarbiyalashimizni taqozo etadi. Yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash, eng avvalo, o'zimizda bu sifatlarni mujassamlashtirishni talab qiladi. Shu bilan birga ta'lim-tarbiyaga yangicha yondashish, yangicha uslub va mazmun, shakl va vositalardan foydalanishni ham taqozo etadi. Bugun eski uslub bilan yangi vazifalarni amalga oshirib bo'lmaydi[2].

Ta'lim mazmuni, uning komponentlari, tarkibi, vazifalari haqida so'z ketganda, dalillar bilan qonuniyatlar, yaqqollik bilan mavhumlik, bilimlar bilan haqiqatni mustaqil bilish metodlari o'rtasidagi maqbul keladigan munosabatlarni aniqlash zarur.

Kezi kelganda shuni aytish kerakki, hozirgi zamon ta'limida didaktik-semantik jihatlarni aniqlash kam o'rganilgan sohalarga kiradi. Hanuzgacha tushunish muammosi (mohiyati) odamlar tomonidan har xil talqin qilinadi, didaktlar semantik

[2] Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi// Boshlang'ich ta'lim, 1998, 6-son.

jihatdan murakkab matnlar va g’oyalarni bayon qilish usullari ustida kam bosh qotirmoqdalar. Ilmiy konsepsiyalar murakkablashib, chuqurlashib borayotgan hozirgi davrda semantik muammolar o’quv materialni bayon qilish, o’quvchilarni fan rivojining yangi davrini tashkil qiluvchi nazariyaga ertaroq olib kirish, ta'limda dalillar bilan nazariyalar munosabatlarini hal qilish muhim ahamiyatga ega. Bu masala ham tezroq o’z yechimini topishi kerak.

Yana bir muammo ustida to’xtalishni lozim topdik. Gap shundaki, biz ko’pincha “ta'lim mazmuni” bilan “o'quv fani mazmuni” tushunchalarini bir xil deb qaraymiz. Aslida unday emas. Oldingi tushuncha kengroq, ya'ni o’quv fani mazmuni faqat shu fanga oid bilimlarni - tushuncha, hukm, xulosalarni o’z ichiga oladi. Ta'lim mazmuni esa bulardan tashqari, ilmiy bilish metodlari, usullari va amallari, ya'ni o’quvchilarda mustaqil bilish malakalarini hosil qiluvchi metodologik bilimlar (ta'rif, isbot, tahlil, sintez, induksiya, deduksiya, tasniflash, muntazamlashtirish, umumlashtirish va hokazo)ni ham o’z ichiga oladi, bu borada ham darsliklarimizda anchagina kamchiliklar mavjud. Lekin darsliklarimiz qanchalik pishiq bo’lmasin, ulardagi ilm durdonalarini o’quvchining “kalla”siga quyuvchi o’tkazgich - o’qituvchi tayyor bo’lmasa, eski qolipdan chiqmay dars o’tsa, muvaffaqiyatga erishib bo’lmaydi.

“Ta'lim to'g’risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablari asosida ishlab chiqilgan umumiy ta'lim fanlari bo’yicha davlat ta'lim standartlari ishlab chiqilib bosqichma-bosqich amalga oshirishga kirishilgandan keyin bu sohadagi ishlarni aniq bir tizimga solish, qo’llab-quvvatlash, yangiliklarni joriy etishga yetarli shart-sharoitlar yaratadigan tuzilmalarga bo’lgan ehtiyoj yaqqol ko’zga tashlanadi. Chunki davlat ta'lim standartlari o’quvchilar bilimiga qo’yiladigan majburiy minimal daraja bo’lib, davr o’quvchilarga ta'lim standartlari darajasi talablaridan oshirib bilim, iqtidor va ko’nikmalar berishni taqozo etadi [3].

Bu masalani ijobiy hal qilish ilg’or tajribalar, yangi pedagogik texnologiyalarni izlash ularning didaktik imkoniyatlarini sinab ko’rgan holda

[3] Maqulova B.. «O'qishga qiziqishni oshirish». Boshlang'ich ta'lim. 3-4-sonlar. 1995.

amaliyotga tatbiq etishga bo’lgan hayotiy ehtiyojni oshirib yubordi. Bundan kelib chiqadigan amaliy xulosa ta'limiy ilg’or yangiliklarni aniqlash, ularning jamg’armalarini tashkil etish, sinab ko’rish, pedagogik amaliyotga tatbiq qilishning ilmiy xulosalarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish tizimini yaratishning dolzarbligini oshirib yubordi. Hozirgi kunda bu tizimni yaratish yo’lida bir qator izlanishlar, sa'yiharakatlar boshlab yuborilgan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Davlat ta'lim standartlari o’quvchilar bilim va saviyasining minimal darajasini belgilaydi. Bu darajadan yuqori ko’rsatkichlarga erishish uchun izlanish va tashabbus lozim. Pedagogik innovatsiyalarni yaratish va ularni boshqarish avvalambor ana shu dolzarb vazifalami hal qilib beradi. Shu boisdan ham pedagogik innovatsiyalarni izlab topish, o’rganish, tahlillar ostida eng ko’p samara beradiganlarini tanlab olish va ularni amaliyotda qo’llash tartibini belgilab beradigan bir tizimni yaratish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun, birinchidan, innovatsiya haqida aniq ma'lumotlar jamg’armasini yaratib, buni shartli ravishda innovatsiyalarni “To’plash” jarayoni deb qabul qilamiz.

Innovatsiyalarni to’plovchi vazirlik tomonidan yangi tashkil qilingan markazlar, jumladan, xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish instituti, maktabgacha ta'lim rahbarlari malakasini oshirish bo’yicha doimiy ishlovchi respublika doimiy kursi qoshidagi monitoring markazi va respublika ta'lim markazi asosiy bo’g’in hisoblanadi. Mazkur ishlarni boshqaruvchi Davlat ta'lim standartlari monitoringi maktab pedagoglar kengashlari, metod birlashmalari, tuman (shahar) pedagogik xalq ta'limi bo’limlari kengashlari, viloyat malaka oshirish institutlarida o’rganib to’plangan pedagogik innovatsiyalarni o’z vaqtida “Tanlovchi” larga yetkazish yoki ayrimlarini to’g’ridan-to’g’ri “Qo’llovchi” larga yo’llashni muvofiqlashtirib boradi.

Pedagogik innovatsiyalarni tanlashda amaliy ish olib boruvchi “Pedagogik texnologiyalar markazi” quyidagi vazifalarni bajaradi:

- ma'lumotlarning yo’nalishini aniqlaydi;
- joriy qilish va qo’llashda ilmiy-metodik jihatdan yordam beradi;

- metodik qo’llanma, dastur va metodik tavsiyalarni nashrga tayyorlaydi va pedagogik matbuotga uzatadi;
- reyting tizimi, o’quvchilarni maktabga tayyorlash, Davlat ta'lim standartlarini joriy qilishdagi ilg’or tajribalar majmuasini yaratadi;
- xorijiy davlatlarning ta'lim sohasidagi tajribalarni o’rganadi, taqqoslaydi va tavsiyalar tayyorlaydi;
- amalga tatbiq qiluvchilarni o’qitadi, malakasini oshiradi, tajriba almashuvlar tashkil qiladi;
- pedagogika sohasidagi olimlar, ilmiy izlanuvchilar bilan hamkorlik ishlarini olib boradi;
- innovatsiyalarning qo’llanilishini dinamik ravishda kuzatib boradi;
- innovatsiyaga oid respublika ilmiy-amaliy kengashlari, konferensiyalarini o’tkazadi;
- malaka oshirish institutlari, tuman metodika va maktab pedagogik kengashlarini yangi ta'lim axborotlari bilan ta'minlab boradi[4].

Pedagogik innovatsiyalarni qo’llash bilan uni to’plab, ilmiy jihatdan xulosalar tayyorlovchi bo’g’in o’rtasidagi “Pedagogik matbuot” asosan nashr ishlari, ommalashtirish, keng pedagogik jamoalar, ilmiy-pedagogik xodimlarga ularni yetkazish, xodimlarning taklif va mulohazalarini olish, tajriba-sinov xulosalari asosida innovatsiyalarni yanada takomillashtirish ishlari bilan shug’ullanadi.

O’ylaymizki, ta'lim texnologiyasi, pedagogik innovatsiyalarga bunday tizimli yondashuv davlat ta'lim standartlarini amalga oshirishda o’z samarasini ko’rsatadi.

Endi biz Atrofimizdagi olam darsligidagi matnlar, ilovalar xamda tasviriy-visual axborotlar o`rganib chiqamiz.

1- sinf atrofimizdagi olam darsligi**.** A.G. Grigoryans muallifligida nashr

[4] Matchonov S., G’ulomova X. va boshqalar. Boshlang’ch sinf o’qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. - Toshkent: , “Yangiyul Poligraph servise”, 2008.

etilgan atrofimizdagi olam darsligi umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinfi uchun mo`ljallangan bo`lib, *O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan darslik sifatida tasdiqlangan. Darslik 2014 yil* Cho‘lpon nomidagi nashriyotda chop etilgan. Mas’ul muharrir A. Bahromov, taqrizchilar Respublika Ta’lim markazi boshlang‘ich ta’lim bo‘limi boshlig‘i N. Ahmedova va Olmaliq shahar 18-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi M. Jalilova. Darslik 39 mavzudan iborat[5] .

Darslikda quyidagi mavzular berilgan:

- Men va atrofdagi olam;
- Bisning maktab;
- Bizning mahalla;
- Ko`chada yurish qoidalari;
- O`quvchining kun tartibi;
- Shaxsiy gigiyena;
- Quyosh;
- Yil fasllari;
- O`simliklarning kuzgi hayoti;
- Kishilarning kuzdagi mehnati;
- O`simliklar olami;
- O`simlik qismlari;
- Gulzor;
- Xona o`simliklari;
- Uy hayvonlari va parrandalar;
- Yovvoyi hayvonlar;
- Qushlar;
- Hasharotlar;
- Qish;
- Yangi yil;

[5]Grigoryans A.G. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinfi uchun Atrofimizdagi olam darsligi. Cho‘lpon nomidagi nashriyot. 2014.

- Biz foydalanadigan jixozlar;
- Oshxonada;
- Elektr jixozlari;
- Kompyuter;
- Biz O`zbekistonda yashaymiz;
- Suv – obihayot;
- Mevalarni qaynatilgan suvda yuvib iste`mol qiling;
- Bahor;
- Qushlar – bizning do`stimiz;
- Kishilarning bahordagi mehnati;
- Navro`z bayrami;
- Qishlog`miz tabiati;
- Bizning bog`;
- Biz va tabiat;
- Jonli burchak;
- Yashil dorixona;
- Salom, Yoz;
- Yozda kishilar mehnati;
- Tabiat, xayol. Ijodiyot
- Bilib qo`ygan yaxshi.

Darslikning aksariyat qismi mavzularga oid quyidagi rasmlardan iborat.

MEN VA ATROFDAGI OLAM:



BIZNING MAKTAB:

.











BIZNING MAHALLA:







QUYOSH :





UY XAYVONLARI VA PARRANDALAR:







YOVVOYI HAYVONLAR





Darslikda shu tarzda turli rasmlar beriladi.

O`qituvchi mavzular bo`yicha xar bir rasmga sharx va tushuntirishlar berishi lozim. Ayni shu paytda o`qituvchi rasmlarni katta masshtabda vizuallashtirishi lozim. Qo`shimcha ravishda ovoz va videofayllar birgalikda bir elektron muhitda berilsa o`quvchilarning tassavuri kengayib, mazmunni tushunib, esda saqlash imkoniyatlari oshadi va ijobiy o`zlashtiradilar.

2- sinf atrofimizdagi olam darsligi. P. G‘ulomov va Sh. Mirzaxmatova muallifligida nashr etilgan atrofimizdagi olam darsligi umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2-sinfi uchun mo`ljallangan bo`lib, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan darslik sifatida tasdiqlangan. Darslik 2010 yil Cho‘lpon nomidagi nashriyotda chop etilgan. Mas’ul muharrir geografiya fanlari doktori, professor H. Vahobov, taqrizchilar biologiya fanlari nomzodi, dotsent I. Sagdullayev, Respublika Ta’lim markazi boshlang‘ich ta’lim bo‘limi boshlig‘i; N. Ahmedova va Toshkent shahar 324- maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi M. Bositxonova. Darslik 6 bo`limdan iborat[6] .

1-bo`lim - Atrofimizdagi olamni o‘rganamiz deb nomlanadi. Bo`limda Atrofimizdagi olam, Tabiatdagi jism va moddalar, Ob-havo mavzulari va Amaliy ish ko`zda tutilgan.

2-bo`lim - O‘lkamizda kuz deb nomlanadi. Bo`limda Yil fasllari, Kuz — hosil yig‘iladigan fasl, Ijtimoiy foydali mehnat, Hasharotlar hayoti, O‘lkamizda uchraydigan qushlar, o‘simliklarning qishga tayyorlanishi, Gerbariy tayyorlash mavzulari berilgan.

3-bo`lim - Ona zaminimiz deb nomlanadi. Bo`limda Yer - sayyora, Yer yuzasining tuzilishi, Suv - hayot manbayi, Vaqt o‘lchov birligi, Qish. Uy va yovvoyi hayvonlarning qishdagi hayoti mavzulari berilgan.

4-bo`lim - Sog‘ tanda sog‘lom aql deb nomlanadi. Bo`limda Gigiyena - ozodalik mavzusi berilgan.

[6] G‘ulomov P., Mirzaxmatova Sh. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2-sinfi uchun Atrofimizdagi olam darsligi. Cho‘lpon nomidagi nashriyot. 2010.

5-bo`lim - O‘lkamizda qish deb nomlanadi. Bo`limda Tish gigiyenasi, Qanday ovqatlanish kerak?mavzulari berilgan.

6-bo`lim - O‘lkamizda bahor deb nomlanadi. Bo`limda Navro‘z - yangi kun, Bahorda o‘simliklar hayoti, 0‘simliklar qanday ko‘paytiriladi?Bahorda kishilarning mehnati, Bahorda hasharotlar hayoti, Bahorda o‘lkamizga qushlarning qaytib kelishi, 0‘lkamizdagi uy va yovvoyi hayvonlar, Inson va tabiat, Shahar va qishloq, Yoz — o‘tadi soz va Yozgi topshiriqlar mavzulari berilgan.

Endi alohida olingan mavzular bo`yich darslikda qanday mazmunlar berilganligini o`rganib chiqamiz.

1-bo`lim Atrofimizdagi olamni o‘rganamiz deb nomlanadi. Bo`limda Atrofimizdagi olam, Tabiatdagi jism va moddalar, Ob-havo mavzulari va Amaliy ish ko`xda tutilgan.

“Atrofimizdagi olam” mavzusida: Siz ko‘radigan hamma narsalar — binolar, daraxtlar, gullar, suvlar, mashinalar, kapalaklar, tog‘lar, Quyosh, Oy va yulduzlarni atrofimizdagi olam deymiz. Atrofimizdagi olam juda xilma-xil bo‘lib, sirlari ko‘p.

Odamlar qadimdan tabiatni o‘rganishga qiziqqanlar.Uning sirlarini bilishga intilganlar. Atrofimizdagi olamni o‘rganish uni kuzatishdan boshlanadi. Biz atrofimizdagi olamni sezgi a’zolarimiz yordamida sezamiz va kuzatamiz.

Ko‘zimiz ko‘radi, qulog‘imiz eshitadi. Tilimiz ta’mni, burnimiz hidni, terimiz issiq va sovuqni sezadi.

Ba’zi bir hodisalarni bilish uchun amaliy ishlar o‘tkazamiz.Tabiatga sayrga chiqamiz.

Tabiatda kuzatgan narsa va hodisalarni «Ish daftari»ga yozib borasiz.

Tayanch so‘zlar: atrofimizdagi olam, sezgi a’zolari, hodisa, ish daftari.

Savollar

1. Atrofimizdagi olam nima?
2. Qanday sezgi a’zolarini bilasiz?
3. «Ish daftari»ga nimalar yoziladi?

Topshiriq

«Ish daftari»ni tuting. Bu daftarga har kungi ob-havo holati va belgilarini yozib boring.

“Tabiatdagi jism va moddalar” mavzusida: Siz ko‘rib turgan barcha narsalar jism va moddalardan iborat: bino, mashina, daraxt, kitob, stol, stul. Biz yashaydigan Yer, osmondagi Quyosh, Oy, yulduzlar ham jism. Ba’zi bir jismlar tabiiy bo‘ladi. Ba’zi jismlarni odamlar yasashadi. Jismlar moddalardan tuzilgan bo‘ladi. Moddalar tabiiy holda ham uchraydi. Ulardan har xil shakldagi jismlarni yasash mumkin. Temirdan g‘ildirak, ketmon, mashinalar yasaladi. Bunda g‘ildirak, ketmon, mashinalar — jismlar, temir esa moddadir. Mis, oltin, tuz, suv, shakar, biz nafas olayotgan havo ham moddadir. Tabiatda uchraydigan ko‘p moddalar uch xil: suyuq, qattiq va bug‘ holatida bo‘lishi mumkin. Buni suv misolida ko‘rib chiqamiz. Bir parcha muzni muzlatgichdan olib idishga solib qo‘ysak, u erib suvga aylanadi. Suvni qaynatsak, bug‘ hosil bo‘ladi. Demak, suv qattiq. Har qanday jism va modda ma’lum bir og‘irlikka ega. Ularning og‘irligi tarozilar yordamida o‘lchanadi

Amaliy ish: Osma va pallali tarozilarda o‘n dona yong‘oq va o‘n dona olma og‘irligini taqqoslang.

Tayanch so‘zlar: jism, modda, gaz, og‘irlik, bug‘.

Savollar

1. Jism nima? Atrofimizda qanday jismlar bor?
2. Modda nima? Qanday moddalarni bilasiz?
3. Moddalar qanday holatlarda bo‘ladi?

Topshiriq.

Uyingizda suvning uch holatda bo‘lishini tajriba qilib ko‘ring. Buning uchun muzlatgichning muzxonasidan bir parcha muz oling. Bu — suvning qattiq holati.Endi uni piyolaga soling. U erib, suyuq holatga — suvga aylanadi. So‘ngra bu suvni qaynatsangiz bug‘ga aylanadi va havoga ko‘tariladi. Bug‘ — suvning gaz holati.

Tajribani kattalar yordamida bajaring.

”Ona zaminimiz” bo`limi bo`yicha:

“YER — SAYYORA” mavzusi:

Biz yashaydigan Yer — sayyora. U ham boshqa sayyoralar kabi Quyosh atrofida aylanadi. Yer Quyosh atrofida uch yuz oltmish besh kunda bir marta to‘liq aylanib chiqadi. Bu vaqtni biz 1 yil deymiz.

Bundan tashqari u o‘z o‘qi atrofida ham aylanadi. Yer o‘z o‘qi atrofida Quyoshga nisbatan bir kecha-kunduzda, ya’ni 24 soatda bir marta aylanib chiqadi. Bunda kecha va kunduz almashinadi.

Oyni hammangiz ko‘rgansiz. Oy — Yerning tabiiy yo‘ldoshi. U Yer atrofida aylanadi. Oyning Quyoshdan farqli tomoni shundaki, u o‘zi nur sochmaydi. Quyoshdan kelgan nurni qaytaradi.

Uning bir tomonini Quyosh nuri yoritadi. Ikkinchi tomoni qorong‘i bo‘lib, bizga ko‘rinmaydi. Shuning uchun Oy har xil ko‘rinadi

Tayanch so‘zlar: sayyora, Yer, Oy, Quyosh, yil.

Savollar

1. Yer Quyosh atrofida necha kunda 1 marta aylanib chiqadi?
2. Yer o‘z o‘qi atrofida aylanganda qanday hodisa ro‘y beradi?
3. Oy bizga nega har xil ko‘rinadi?

Topshiriq

Oyning har xil ko‘rinishini kuzatib boring va qaysi kuni qanday ko‘ringanini «Ish daftari»ngizga yozib qo‘ying.

“Uy va yovvoyi hayvonlarning qishdagi hayoti” mavzusida:

Qadim zamonlarda hamma hayvonlar yovvoyi holda yashagan. Kishilar ayrim hayvonlarni asta-sekin qo‘lga o‘rgatib, xonakilashtirgan. Yovvoyi hayvonlarning qunduz, bug‘u kabi ayrim turlari endilikda qo‘lga o‘rgatilib, boqilmoqda. Ot, sigir, tuya, qo‘y, echki; parrandalardan — tovuq, o‘rdak, g‘oz, kurka va sayroqi qushlar qishda odamlarning uylarida maxsus xonalarda hamda fermalarda boqiladi.

Ular uchun yozda va kuzda ozuqa — pichan, don, yem tayyorlab qo‘yiladi.

Yovvoyi hayvonlarga qishda ancha qiyin bo‘ladi. Sovuq kunlarda ular oziq izlashga majbur bo‘ladi.

Shuning uchun ular yoz va kuz oylarida semirib, ko‘proq yog‘ to‘playdi. Yerni qalin qor qoplagan vaqtda ayiq kabi ayrim hayvonlar yer osti uyalarida uyquga ketishadi. Ilonlar, qurbaqalar, tipratikanlar, toshbaqalar, chumolilar, ba’zi bir hasharotlar ham qishda uxlaydi. Bahorda kunlar isishi bilan ular uyg‘onadilar va ozuqa izlab, hayot tarzini davom ettiradilar.

Turna, laylak, bulbul, qaldirg‘och, yovvoyi o‘rdak kabi ba’zi qushlar kuzda issiq o‘lkalarga uchib ketadi.

Chumchuq, musicha, kaptar, afg‘on maynasi kabi qushlar qishda ham uchib ketmaydi, ular bizning qishimizga o‘rganib qolgan.

Bunday qushlar odamlar uylariga yaqinroq joylarda yashaydi.

Tayanch so‘zlar: yovvoyi hayvonlar, uy hayvonlari.

Savollar

1. Siz yashaydigan joyda qaysi qushlar kuzda uchib ketib, bahor da qaytib keladi?

2. Siz o‘zingiz uyda qanday hayvonlarni boqasiz? Ularni uyda boqishingizdan maqsad nima?

3. Siz yashaydigan joyda qanday uy hayvonlari boqiladi?

! Topshiriq

Yashash joyingizda qanday foydali hayvonlar borligini kattalardan so‘rab bilib oling va «Ish daftari»ngizga nomlarini yozib qo‘ying.

Atrofimizdagi olam darsliklaridagi matnlar, turli chizma va rasmlar, barcha didaktik ahamiyatli komponentlarni o`rganib chiqdik. O`rganishimiz quyidagi xulosaviy fikrlarni shakllantirdi:

- barcha dasr mavzulari o`qituvchining bevosita tushuntirishi va ko`rgazmali metodlardan foydalanishini taqozo etadi;

- mazmunlarni ifodalaganda darslikdagi xamda qo`shimcha ravishda o`qituvchi o`zi turli didaktik chizmalar, illyustrasiyalar, harakatli fayllardan ham foydalanishi lozim;

- 1-sinf dars mavzularida deyarli oddiy chizma-grafiklar ko`rgazmali ifoda etilishi lozim.

Shundan kelib chiqib biz keyigi paragraflarda ayrim mavzularni tanlab olib. Ularga taqdimot ishlanmalarini tayyorlaymiz.

1.2. O’quv-tarbiyaviy jarayonlarda kompyuter dasturlaridan foydalanish

Ma'lumki atrofimizdagi olam va tabiatshunoslik darslarini qiziqarli, ta'sirchan o’tkazish uchun maktab tabiatshunoslik xonalari katta ahamiyatga ega. Tabiatshunoslikni o’qitish tirik o’simlik va hayvonlar ustida ko’rgazmali va amaliy metodlarni qo’llanish asosida mashg’ulotlar o’tkazishga imkon beradigan moddiy bazani tashkil etishni talab qiladi. Tabiatshunoslik xonasida jonli va jonsiz tabiat bo’yicha kerakli jihozlar mavjud bo’lishi kerak. Probirka, lampa, termometr, har xil hajmdagi o’lchagich idishlar, tasviriy sxematik ekranli ko’rgazmalar, texnik vositalar - diafilm, diapozitivlar, gramplastinkalar (qushlarning ovozi yozilgan) stendlar, jadvallar, tabiiy karta, globus, devoriy gazetalar va hokazo.

Hozirgi vaqtda o’quvchilarning idrok qilish faoliyatlari va bilimlarini tekshirish maqsadida tabiatshunoslik darslarida har bir o’quvchining o’qishdagi mustaqilligiga va o’quv axborotlarini qabul qilish hamda qayta ishlashlarini tashkil qilishga yordam beruvchi dasturlashtirilgan o’qitish qo’llaniladi.

Dasturlashtirilgan elementlarni tatbiq qilishda an'anaviy o’qitishni dasturlashtirilgan o’qitishga qarama-qarshi qo’yish, yangini deb umum qabul qilingan metodlardan voz kechish kerak emas. Har ikkala yo’nalish chambarchas bog’langan bo’lishi va bir-birini to’ldirishi zarur.

O’qitish sifatini oshishiga yordam beruvchi o’quvchilar bilimini faol nazorat qilishning yangi shakllarini ishlab chiqish quyi sinflardagi tabiatshunoslik darsida dasturiashtirilgan elementlardan foydalanishning boshlanishi bo’ldi, chunki muntazam nazoratning eski shakllari ko’pincha dars tuzilishini buzib, unumsiz fakt yo’qotilishiga olib kelib, o’qituvchilarda qiyinchiliklar tug’dirdi. Kontrol topshiriqlarni dasturlashtirish tamoyili o’quvchilarning og’zaki javoblarini shartli ifodalar - raqam yoki chiziq bo’laklari ko’rinishidagi javoblar bilan almashtirishdan iboratdir. Ulaming afzalligi shundaki, ular o’tilgan dastur materialini har bir

o’quvchi tomonidan odatdagi tekshirishdagiga qaraganda ko’p hajmda o’zlashtirish darajasini qisqa vaqt ichida aniqlashga imkon beradi[7] .

Tajriba bilimlarni hisobga olishning dasturlashtirilgan uslublaridan tabiatshunoslik darslarida o’quvchilarning idrok qilish faoliyat-larini faollashtirish maqsadida foydalanish maqsadga muvofiqligini ko’rsatdi. Uning afzalligi yana shundaki, o’quv materialini o’zlashtirish darajasini xatto o’quvchilarning o’zlari tushuntirishdan keyin dars vaqtida yoki keyinroq tekshirishlari mumkin.

Quyi sinflarda tabiatshunoslikni o’rganishdagi dasturlashtirilgan o’qitishning qo’llanilishi mumkin bo’lgan variantlarini ko’rib chiqamiz.

Axborotning asosiy qismini inson ko’rish a’zolari orqali oladi. Ko’rgazmali axborotning o’zlashtirilishi oson bo’ladi. Inson tabiatining ana shu xususiyati grafik operatsion tizimlarda ishlatiladi. Ularda axborot grafik obyektlar: znachoklar (belgilar), oynalar va rasmlar ko’rinishida tasvirlanadi. Operatsion tizimning barcha grafik obyektlari, shuningdek, boshqa barcha tasvirlar ma’lum yo’llar bilan kompyuterda hosil qilinishi yoki unga kiritilishi kerak. Grafik tasvirlarni kompyuterga kiritish uchun maxsus tashqi (atrof) qurilmalari ishlatiladi. Eng ko’p tarqalgan qurilma bu skanerdir. So’nggi paytda raqamli fotokameralarning ham qo’llanish ko’lami kengayib bormoqda. Ularning oddiy fotoapparatlardan farqi shundaki, tasvir kimyoviy yo’l bilan fotoplyonkaga tushirilmaydi, balki fotokamera xotirasining mikrosxemalariga yozib qo’yiladi. U yerdan axborotni kabel orqali kompyuterga uzatish mumkin. Ayrim raqamli fotoapparatlar ma’lumotlarni fayl sifatida egiluvchan diskka yozib qo’yish imkoniyatiga ham ega. Diskdagi axborotni esa kompyuterga o’tkazish unchalik qiyin emasligini siz yaxshi bilasiz.

Tasvirni kompyuterga videokameradan ham kiritish mumkin. Videoning ketma-ketlikdagi biror kadrni tanlashi va uni kompyuterga kiritishi *tasvirni ushlab olish* deyiladi. Kompyuterga tasvirni kiritish uchun uni albatta skanerlash, rasmga olish yoki uni ushlab olish shart emas. Tasvirni kompyuterning o’zida ham hosil

[7] Апатова Н.В. Информационные технологии в школьном образовании. Ии-т общеобразоват. шк. рос. акад. образования; М.: Ип-г общеобразоват. шк. РАО, 1994.-228 с.

qilish mumkin. Buning uchun grafik muharrirlar deb ataluvchi maxsus dasturlar sinfi ishlab chiqilgan.

Axborotni grafik shaklda ishlab chiqish, taqdim etish, ularga ishlov berish, shuningdek, grafik obyektlar va fayllarda bo'lgan nografik obyektlar o'rtasida bog'lanish o'rnatishni informatikada *kompyuter grafikasi* deb atash qabul qilingan. Kompyuter grafikasi uch turga bo'linadi: rastrli grafika, vektorli grafika va fraktal grafika.

Tabiatshunoslik (Atrofimizdagi olam) darslarini tashkil etishda, darsdan tashqari mashg'ulotlar xamda darslarga ko'rgazmalar, geografik chizma-grafiklar tayyorlashda kompyuter tizimlarida mavjud dasturlaridan foydalanish o'qituvchiga ko'p imkoniyatlar beradi. Dars va mashg'ulotlar sifatli ko'rgazmalar, dinamik-tasvirli vositalar bilan olib borilsa, tabiatshunoslik bilimlarni puxta o'zlashtirishda, voqea va hodisalar moxiyatini tushunib yetishda hamda geografik tasavvurni kengaytirishda omil bo'lib, o'quvchilarda bir qator amaliy-geografik bilim, ko'nikma va malakalar shakllanib boradi. Shuning uchun kompyuter yordamida o'tiladigan darslardan oldin o'qituvchi va o'quvchilar quyidagilarni bilishlari shart[8]:

- texnik xavfsizlik qoidalarini;
- «axborot», «dastur», «ish stoli», «grafik tahrirlovchi» kabi tushunchalarni;
- matn tahrirlovchisining asosiy ish xususiyatlarini.

O'quvchi-talabalar quyidagilarni bajara olishlari lozim:

- klaviturадagi harf va sonli bloklardan foydalanishni;
- «sichqoncha»dan foydalanishni;
-menyu fayllari bilan ishlay olishlari;
-oddiy grafik va matnlarni tasvirlay olishlari.

Biz quyida kompyuter tizimlarida mavjud Microsoft Office dasturlari qisqacha tavsifi va dasturlar imkoniyatlaridan tabbiyot fanlari o'qituvchilari xamda

[8] Gaziyev A. Multimedia resurslari – zamon ehtiyoji: [Milliy kutubxonada] // INFOLIB. – 2015. – № 1. – B. 56–57.pdf 150 Kb.

o’quvchi-talabalar tabiatshunoslik tasvirlar, grafiklar va turli chizmalar tayyorlay olishlari, shuningdek mustaqil o’rganishlari uchun uslubiy ko’rsatmalar beramiz.

Tabiatshunoslik (atrofimizdagi olam) fanlarni o’qitish jarayonida o’quvchi-talabalarning diqqatini g’ayritabiiy hodisalar, faktlar, tabiat fenomenlariga qaratish orqali fanga qiziqish shakllantiriladi. Ayni shu omil o’qitish tizimida yangi texnologiyalarni qo’llash, uslubiy yonoshuvni takomillashtirishda real imkoniyatlarni yuzaga chiqarib, jarayonning jozibadorligiga asos bo’lib xizmat qiladi. Jumladan, Yerning paydo bo’lishi, yer qobig’ida yuz beradigan hodisalar, dunyo xalqlarining yashash tarzi va mashg’ulotlari, materiklar va okeanlarning o’simlik va hayvonot olami haqidagi ma’lumotlar kishilardagi borliqni anglash, bilishga intilish tuyg’ulari bilan uyg’unlikda o’qish motivi negizidagi qiziqishlarni uyg’otadi.

Tabiatni o’rganish jarayonidagi asosiy masalalardan biri o’quvchilar ongida dunyoning geografik suratini shakllantirishdir. Dunyoning geografik suratini tasavvur qilish orqali o’quvchi borliqni, undagi hodisa va jarayonlar hamda ularning amal qilish qonuniyatlari bilan birgalikda idrok etadi. Masalaning mohiyati shundan iboratki, geografik savodxonlik kishida odamlar, hududlar, ularning tabiati va xo’jaligi o’rtasida o’zaro bog’lanish hamda aloqani idrok etish imkonini tug’diradi. Shunga ko’ra bugungi fan uslubiyotida geografik bilimlar shunday birlashtirilishi lozimki, uning natijasida har bir o’quvchida dunyoni har tomonlama fazoviy ko’rish ko’nikmasi shakllantirilishi g’oyat dolzarb amaliy ahamiyat kasb etadi.

An’anaviy didaktikada izohli illyustrativ ta’lim texnologiyasi o’quvchilarga axborot berish hamda umumta’lim va maxsus ko’nikmalarni shakllantirish maqsadida ularning reproduktiv faoliyatini tashkil etishga yo’naltirilgan bo’lib, o’qitishning xilma-xil texnologiyalari bilan o’zaro integratsiyaga kirishadi. Shuningdek, bir tomondan o’qituvchining ta’lim jarayonidagi xatti-harakatini konkretlashtirishga, o’rtaga qo’yiladigan masalaning moddiy chegaralarini belgilab olishga ko’maklashsa, ikkinchi tomondan, o’quvchilarning ana shu masalani

muayyan miqdoriy o’lchamlar yordamida moddiy anglash imkoniyati yuzaga keltiradi.

Ta’kidlash joizki, fanlarni o’qitish metodikasida ta’lim texnologiyalarini, xususan, illyustrativ ta’lim texnologiyasini qo’llash borasida katta tajriba to’plangan. Chunki mohiyatan o’qitishning har qanday vositasi o’zida u yoki bu darajadagi axborotni ifoda etib, uning almashinuviga xizmat qiladi.

Ta’limni rivojlantirishning hozirgi bosqichida o’qitishni tashkil etishning vositalarini, shaklini va uslubiyotini yangilash zaruriyati paydo bo’ldi. Buni quyidagilar bilan izohlash mumkin:

Birinchidan, ijtimoiy taraqqiyot har doim jamiyatning barcha bo’g’inlari uyg’unligida ro’y berib, jamiyatning hech bir jabhasi undan ayri holda qolishi mumkin emas. Shunga ko’ra ijtimoiy taraqqiyot nafaqat jamiyat hayotida bir bosqichdan boshqasiga o’tishni, ayni paytda, ana bosqichlardagi tafakkurning bilim va axborot tarzida o’zaro almashinuvini ham ifoda etadi. Bugungi biz yashayotgan davr mazmunan mutloqo yangi davr, yangi bosqichdagi jamiyatdir. Mamlakatimizning davlat mustaqilligini qo’lga kiritilishi, liberallashuv jarayonlari nafaqat jamiyat iqtisodiy-siyosiy tizimini, balki, jamiyat g’oyaviy-mafkuraviy asosining ham tubdan yangilanishiga olib kelmoqda.

Bu o’z navbatida jamiyat qurilishining muhim vositasi hisoblangan ta’lim-tarbiya jarayonida an’anaviy uslub va yondoshuvlarni takomillashtirishni, jahon sivilizatsiyasida o’z mustahkam o’rniga ega bo’lgan Sharq gumanizmi va G’arb individualizmi yutuqlari singdirilgan xilma-xil qarashlarni amaliy faoliyatimizda qo’llashni taqozo qiladi.

Ikkinchidan, ijtimoiy hayotda bozor tamoyillarining rivojlanishi nafaqat iqtisodiy munosabatlar tizimida, balki, boshqa barcha jabhalarda ham raqobatbardoshlik tushunchasini, uning obyektivligini anglash imkonini berdi. Ya’ni, bugungi kunda hayotimizda mahsulot, xizmatlar, korxonalar raqobatbardoshligi bilan bir qatorda kadrlar va ta’lim raqobatbardoshligi tushunchalari ham keng qo’llanilmoqda. Ta’limning ilg’orlik darajasi ko`p yillik istiqboldagi jamiyatning faol a’zolari qatlamlarini shakllantirishning bosh omilidir.

Bu shubhasiz, ta’lim munosabatlarining uzluksiz yangilanib, rivojlanib borishini ob’ektiv shart sifatida belgilaydi.

Uchinchidan, ta’lim-tarbiya samaradorligi uch yoqlama xarakterga ega bo’lib, u bir tomondan ta’lim beruvchi – o’qituvchi, ikkinchi tomondan ta’lim oluvchi – o’quvchi xatti-harakati bilan, uchinchi tomondan, mavjud shart-sharoit, muhitning qulaylik darajasi bilan belgilanadi. Shunga ko’ra jamiyat hayotining bugungi liberallashuvi sharoitida ta’lim jarayonining nechog’lik samaraga ega bo’lishi o’quvchi-talabalarning qiziqish va manfaatlari hisobga olinishi bilan uzviy bog’liq.

Yuqorida ta’kidlangan vazifalar yechimida ta’lim jarayoniga yangicha ta’lim, jumladan, pedagogik va axborot texnologiyalarini tadbiq etish, o’qitishni tashkil etishning noan’anaviy usul va shakllaridan keng va samarali foydalanish kutilgan natijaga erishish imkonini beradi.

Mamlakatimiz ta’lim jarayoniga texnologiya tushunchasi bir muncha keyinroq, ta’lim islohotlari davrida kirib kelgan bo’lib, yunoncha “texne” – mahorat, “logos” – ta’limot, tushuncha so’zlari birikmasidan tashkil topgan. Texnologiya tushunchasi tayyor mahsulot olish uchun ishlab chiqarish jarayonlarida qo’llaniladigan usul va metodlar majmui; shunday usul va metodlarni ishlab chiqaruvchi va takomillashtiruvchi fan sifatida ta’riflanadi. Ta’lim jarayonidagi texnologiya o’ziga berilgan ta’rifga mansublikni to’liq saqlab qolgan holda, innovatsion faoliyatni va undagi “kreativlik”[9] xususiyatini ro’yobga chiqarishga qaratiladi[10].

Yuqorida ta’kidlanganidek, ta’lim – bilim va axborot almashinuvining o’ziga xos shakli va ayni paytda ijtimoiy xarakterdagi tizimli vositasi bo’lib, bu jarayonda shubhasiz axborot texnologiyalari markaziy o’rinni egallaydi. Ta’lim islohotlari tizimida axborot texnologiyalarini qo’llash vazifasi yaxlit jarayon bo’lishiga qaramay, har bir fan tarmog’ining o’ziga xos xususiyatlari o’zaro

[9] “Креативлик” тушунчаси индивиднинг янги тушунча яратиш ва янги кўникмалар ҳосил қилиш қобилиятини билдиради.

[10] Душина И.В. Педагогические технологии обучения географии. «География в школе» -2001. -№3 –стр. 49-53.

farqlanuvchi yondoshuv va vazifalarni keltirib chiqaradi. Xususan, geografiya ta’limida texnologik yondoshuv, **birinchidan**, o’qitish jarayonini o’zaro uzviy bog’liqlikdagi bosqichlar, bazalar, amallarga ajratish, bo’lishni – sintezni; **ikkinchidan**, geografiya ta’limidan ko’zlangan natijaga (o’quv maqsadlarga) erishish uchun bajariladigan harakatlarni ketma-ket, bosqichma-bosqich amalga oshirishni – uzviylikni talab etadi

Axborot texnologiyalardan foydalanish, uni biror bir sohaga tadbiq etish o’z ichiga qator vazifalarni oladi. Axborotlashgan obьektlar sifatida sonlar, matnlar, tasviriy axborotning statistik va dinamik ifodalari, rasmlar, chizma va animatsiyalar, ovozli obrazlarni keltirish mumkin. Foydalanuvchining mustaqil va ongli ravishda olib boradigan faoliyatiga axborot obyektlarini yaratish, kerakli axborot ob’ektlarini izlash, axborotlar yig’ish, taqlil qilish va ajratib olish, tashkillashtirish, kerakli ko’rinishda tasvirlash, ma’lumotlarni uzatish, loyihalash, modellashtirish va boshqalar kiradi.

Ta’limda axborot texnologiyalarining faol qo’llanilishi o’quvchida mustaqil izlanishni rag’batlantiradi. Chunki, mohiyatan axborot texnologiya modellari muayyan amallarni ongli va rejali amalga oshirish davomidagina o’zlashtiriladi.

Bu jarayon o’z navbatida quyidagilarni o’z ichiga oladi:

► kompyuter, printer, modem, mikrofon va ovoz eshitish qurilmasi, skaner, raqamli videokamera, multimedia proyektori, chizish plansheti, musiqali klaviatura kabilar bilan ishlash hamda ularning dasturiy ta’minotini yaratish;

► virtual matn konstruktorlari, multiplikatsiyalar, musiqalar, modellar, geografik xaritalar, ekran protsessorlari va hakozolar ustida ishlash;

► axborot majmui, ma’lumotnomalar, entsiklopediyalar, virtual muzeylar yaratish va boshqa.

Bilim olishda, ma’lum turdagi axborotlarni o’zlashtirishda kompyuter tizimining yordami benihoya kattadir. Axborotlar qanday ko’rinishda ifodalanishidan qat’iy nazar uni yig’ish, saqlash, qayta ishlash va foydalanishda kompyuter texnikasining rolini quyidagilar belgilaydi:

1) O’qitishda yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish standart tizimga nisbatan o’quv jarayonini jadallashtirib, talabada ilmga qiziqishni oshiradi, ularning ijodiy faoliyatini o’stiradi, olingan bilimlarni takrorlash, mustahkamlash va nazorat qilishni yengillashtiradi, talabani o’quv jarayonining faol sub’ektiga aylantiradi.

2) Yangi axborot texnologiyalardan ta’lim-tarbiya jarayonida quyidagi shakllardan foydalanish mumkin bo’ladi:

► muayyan predmetlarni o’qitishda kompyuter darslarini tashkil etishda;

► kompyuter darslarini – ko’rgazmali material sifatida qo’llashda;

► talabalarning guruhli va frontal ishlarini tashkillashtirishda;

► talabaning ilmiy izlanishlarini takomillashtirish, faollashtirishda;

► talabalarni o’qishdan bo’sh vaqtlarini to’g’ri tashkil qilish masalalarni hal etishda va hokazo.

Zamonaviy axborot texnologiyalari vositalarini ta’lim jarayonida qo’llashning yana bir o’ziga xos tomoni – u o’quvchi shaxsini rivojlantirishga yo’naltirilgan butun bir uslubiy tizimni yaratish imkonini beradi. Ana shunday imkoniyatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

► yangi axborot texnologiyalari vositalari va foydalanuvchilar o’rtasida ikki yoqlama aloqaning o’rnatilishi;

► geografik ob’ektlar, jarayon, hodisalar, qonuniyatlar haqidagi ma’lumotlarning kompyuterda tasviriy namoyish qilinishi;

► katta miqdordagi ma’lumotlarni saqlash, axborotlar bankini hosil qilish hamda uni uzatish imkoniyatining yuqoriligi;

► foydalanuvchilarning markaziy axborotlar bankiga kirishlarining osonligi;

► hisoblash, ma’lumot qidirish, axborot kiritish va qo’shish faoliyatining dasturlashganligi;

► o’quv faoliyatini boshqarish, o’zlashtirishni nazorat qilish hamda information metodik ta’minot jarayonlarining avtomatlashganligi va boshqa.

Pedagogik jarayonda qo'llanilayotgan yangi axborot texnologiyalari vositalari orasida dasturli vositalardan foydalanishni ta'minlash lozim. Dasturli vositalar ishlab chiqish o'ta murakkab jarayon bo'lib, o'qituvchilar, metodistlar, psixologlar, dizaynerlar va boshqa mutaxassislarning o'zaro hamkorligini taqozo etadi. Dasturli vositalardan ta'lim amaliyotida keng foydalanish keyingi yillar davomida amalga oshirilib kelinmoqda. O'qitish uslubiyoti nazariyasida dasturli vositalardan foydalanishning ilmiy-uslubiy jihatlari tadqiq qilinmoqda hamda uning nazariy masalalari[11] ochib berilmoqda.

Ayniqsa, kompyuterli modellashtirishni qo'llash, ko'rgazmali vositalarni kiritish, dialog o'tkazishning turli vositalaridan foydalanish laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazishga yo'naltirilgan dasturli vositalarni qo'llash samaradorlikni oshiradi

Ta'lim jarayonida dasturli vositalarni qo'llash imkoniyatining tahlili quyidagilarni ko'rsatadi:

- dasturli vositalarni qo'llash kompyuter savodxonligini shakllantirishga, murakkab real vaziyatda optimal qaror qabul qilish, mustaqil izlanish, alohida ma'lumotlar yoki butun bir axborotlar banki bilan ishlash borasida ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilganligi jihatidan ta'lim-tarbiya jarayoni bilan uyg'unlikka ega;
- dasturli vositalarning didaktik mohiyati zamonaviy kompyuter grafikasi imkoniyatlaridan foydalanish natijasida ko'rgazmalilikning kuchaytirilganligi bilan tavsiflanadi;
- dastur tuzuvchilar tomonidan o'quv motivlarini kuchaytirishga, o'quvchilarning nafosat tarbiyasiga ko'maklashuvchi turli «ijodiy ekran»lar tashkillashtirishga, ya'ni, ta'limiy dizaynga e'tiborning qaratilishi dasturli vositalar jozibadorligini oshirib, pirovardda ular samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;
- Ta'limda o'yin faoliyatini tashkil etish va maqsadga yo'naltirish, boshqarishga yo'naltirilgan;

[11] Шейнис.А.И Компютеры на уроках географии. География и экология в школе XXI века.2002 г, №3

• dasturli vositalarlarda o’quvchiga kompyuterda ishlash rejimini tanlash imkoniyati yaratilgan bo’lib, bu o’z navbatida ta’limning liberallashuviga mos kelib, o’quvchida tashabbus ko’rsatish, o’z uslubi va yondoshuvini ishlab chiqish, takliflarini, shu orqali o’z manfaatlarini ifoda etishni rag’batlantiradi;

• dasturli vositalarlardan foydalanish muayyan uslubiyotga qat’iy taalluqlilik kasb etmaydi va ta’limning qo’shimcha vositalarini qo’lashni taqozo etmaydi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari vositalarining imkoniyatlari, ularni qo’llashning maqsadga muvofiqligi zamonaviy axborot texnologik vositalardan an’anaviy uslubiyotni qo’lash uchun emas, balki variativ metodika yaratish uchun foydalanishni taqozo qiladi. Xususan, geografiya ta’limida bunday uslublarni quyidagilarga yo’naltirish maqsadga muvofiqdir:

► o’quvchilarda geografik tasavvurni to’g’ri shakllantirish;

► geografik tafakkurni, fikrlashni rivojlantirish;

► mustaqil bilim olish malakalarini shakllantirish;

► informatsion ta’lim va ekspremental tadqiqotni amalga oshirish malakalarini rivojlantirish;

► estetik idrok etishni rivojlantirish;

► shaxsning kutilmagan vaziyatda qaror qabul qilish jarayonida ijodiy tashabbus ko’rsatish imkoniyatlarini rivojlantirish va boshqalar.

POWER POINT dasturi xaqida ma’lumotlar**.** Microsoft Power Point universal, imkoniyatlari keng bo’lgan, ko’rgazmali grafika amaliy dasturlari sirasiga kiradi va matn, rasm, chizma, grafiklar, animatsiya effektlari, ovoz, videorolik va boshqalardan tashkil topgan slaydlarni yaratish imkonini beradi.



5-расм

Slayd ma’lum bir o’lchamga ega bo’lgan muloqot varaqlari hisoblanadi. Unda biror maksad bilan yaratilayotgan namoyish elementlari joylanadi.

Slaydlar ketma-ketligidan iborat tayyor ko’rgazmani kompyuter ekranida, videomonitorda, katta ekranda namoyish qilish mumkin. Ko’rgazmani tashkil qilish slaydlar ketma-ketligini loyixalash va jihozlash demakdir.

Taqdim etish axborot texnologiyasining samaradorligi ko’p jihatdan taqdim etuvchi shaxsga, uning umumiy madaniyati, nutq madaniyati va h.k.larga bog’liq ekanligini ham unutmaslik lozim.

PowerPoint dasturi prezentatsiyalar (taqdimot kilish, ya’ni tanishtirish) bi-lan ishlash uchun eng qulay bo’lgan dasturiy vositalardan biridir. Bu dastur orqali barcha ko’rgazmali qurollarni yaratish va ba’zi joylarda esa ma’lumotlar bazasi sifatida xam qo’llash mumkin. Ayrim hollarda bu dasturdan mulьtimedia vositalarini boshqarish va ularni qo’llab, namoyish etuvchi qurilmalarga yuborish vazifalarini xam bajarish mumkin. Dasturdagi asosiy tushunchalar bu slaydva prezentatsiya tushunchalaridir.

Prezentatsiya (taqdimot) yaratilayotgan slaydlar turkumi va uni namoyish etish uchun beriladigan fayl nomi. Masalan: Prezentatsiya PowerPoint dasturi ochilganda, sarlavhalar qatorida paydo bo’lib, yaratilgan yoki yaratilayotgan taqdimotning ayni vaktdagi nomi hisoblanadi. Bu nomni keyinchalik o’z hohishingizga ko’ra almashtirishingiz mumkin.

PowerPoint dasturini ishga tushurish. Bu dastur ishga tushirishni WINDOWS ish stolidan boshlash zarur. Ish stolidagi quyidagi buyruqlarni bajarish orqali ishga tushiriladi:

«ПУСК» ⟷ «ПРОГРАММЫ» ⟷ «MICROSOFT POWER POINT»



6-расм

Eslatma: Yuqoridagi buyruqlarni bajarish uchun sichqonchani chap tugmasini bosish zarur.

- **«Мастер автосодержания»** (Avtomundarija ustasi) ma'ruzachi ismi, familiyasi, mavzu nomi, taqdimot turi, uslubi, rangli chizmasini kiritib, bir necha slayddan iborat bo'lgan tayyor taqdimotni chiqaradi.

- **«Шаблон презентации»** (Taqdimot qoliplari) taqdimotni jihozlash turini tanlash va ularda ish olib borish imkonini beradi.

- **«Пустую презентацию»** (Bo'sh taqdimotni) mustaqil ravishda taqdimot tuzish imkonini beradi.

- **«Открыть презентацию»** (Taqdimotlarni ochish) kompyuter xotirasida va diskda mavjud bo'lgan ko'rgazmali fayllarni ochadi. Har bir foydalanuvchi dasturda ish olib borishi uchun yuqoridagi bulimlardan birini uz maqsadiga ko'ra tanlab oladi. Dastur ishini bo'sh taqdimotdan xam boshlash mumkin. Buning uchun sichqoncha ko'rsatkichi **«Пустую презентацию»** (Bo'sh taqdimotni) bo'limiga olib kelinadi va «OK» tugmasi bosiladi. Bunda quyidagi muloqot darchasi hosil bo'ladi (7-rasm).



7-расм. Muloqot darchasi

Bu yerda ko'rsatilgan har bir slaydda tanlab olish imkoniyati bor. Buning uchun yo'nalish tugmalari yoki sichqonchadan foydalanish mumkin.

Muloqot darchasidan kerakli holat, masalan: **«Пустой** слайд» (Bo'sh slayd) ko'rinishi tanlanadi va «OK» tugmachasi bosiladi.

Bu amallar bajarilgandan so'ng PowerPoint dasturining asosiy oynasi xosil bo'ladi. U sarlavhalar qatori gorizontal menyu, uskunalar paneli ("standart". «bichimlash» va rasmlar bilan ishlash), rejim (holat) tugmachalari(slaydlar rejimi strukturalar rejimi. Saralash rejimi, namoyishlar rejimi) va ishchi maydonni uz ichiga oladi.

Power Point okranining pastki chap burchagida ish rejimi va uning turlarini boshqaruvchi tugmachalar (piktogrammalar) guruxi joylashgan.



8-расм. Murojat darchasi

Tugmachalarning vazifalari quyidagi jadvalda keltirilgan:

Rasm quyish.Taqdimotga rasm qo’yish yoki rasmni boshqa taqdimotdan olib ko’yish mumkin.Buning uchun quyidagi ishlar bajariladi: Rasm qo’yish uchun:

Rasmni qo’yish kerak bo’lgan slayd ko’rinishi tanlanadi.

«Вставить» tugmasi bosiladi va Clip Art darchasidagi kerakli rasm tanlab olinadi.

- Shu darchadan **«Вставить»** (kiritilsin) tugmachasi bosilgandan so’ng yaratilayotgan prezentatsiyada rasm paydo bo’ladi.

- Xosil bo’lgan rasmning kattaligini o’zgartirish va uni boshqa joyga ko’chirish ham mumkin. Buning uchun:

- Rasm faollashtiriladi, ya’ni rasm ustida sichqoncha ko’rsatkichi bosiladi;

-Chegaradagi ramka orqali rasm kerakligicha kattalashtiriladi yoki kichiklashtiriladi;

- Faollashgan ramkadagi rasm sichqoncha orqali kerakli joygacha sudrab o’tkaziladi.

Boshqa taqdimotdan rasm olib qo’yish uchun:

«Вставка» (qo’yish) **«Рисунок»** (Rasm) **«Из файла»** (Fayldan) buyruqlari tanlanadi.

Natijada, ekranda uskunalar paneli paydo bo’ladi. Bu panel **«Настройка изображения»** (Tasvirni sozlash) paneli bo’lib, u orqali rasmni ko’chirish, bo’yash, ramka o’tkazish, rasm kontrastini (tiniqligini) to’g’rilash mumkin.

Rasmni skaner orqali xam qo’yish mumkin: buning uchun **«Вставка»** (Ko’yish) menyusida **«Рисунок»** (Rasm) keyin **«Со сканера»** (Skanerdan) buyrug’i tanlanadi. Rasm *«MS PHOTO EDITOR»* da ochiladi va uni o’zgartirish mumkin bo’ladi.

Taqdimotga rasm qo’yib, uni o’zgartirish, masalan, chegara ranglarini o’zgartirish, alohida fragmentlar o’rnini o’zgartirish, bir necha rasmlarni birlashtirish mumkin.

Jadvallar qo'yish. *Power Point* dasturida boshqa dasturlardagi kabi jadval ko'rinishidagi ma'lumotlarni ham kiritish va uni taxrirlash mumkin. Bu standart uskunalar panelidagi quyidagi piktogrammalar yordamida amalga oshiriladi, ya'ni:

(MS Word) ёки (MS Excel) tugmachalar (piktogrammalar) dan birini tanlab bosiladi;

- jadvalning kerakli ustun va satr parametrlari tanlab olinadi va ekranda hosil bo'lgan jadvalga sonli va matnli qiymatlar kiritiladi;

- jadvalga o'zgartirishlar kiritiladigan bo'lsa jadval faollashtiriladi, ya'ni sichqoncha ko'rsatkichi jadval tasviri ustida ikki marta bosiladi.

Jadval bilan ishlashni tugallash sichqoncha ko'rsatkichi orqali amalga oshiriladi.

Diagrammalarni qo'yish. Diagrammani qo'yish uchun zarur bo'lgan slaydlar umumiy ko'rinishidagi diagrammalar bilan ishlash slaydlari tanlanadi.

tugmachani bosing va kerakli ko'rinishdagi diagrammami tanlang. Parametrlarni o'rnating hamda qiymatlarni keraklicha o'zgartiring.

Diagramma kattaligini o'zgartiring va kerakli joyga o'rnating.

Rasm chizish. Rasm chizish WORD dagi kabi amalga oshiriladi. Asosiy farki shundaki, Power Point kushimcha grafik element ichiga matn yozish va ularni ixtiyoriy burchakka aylantirish imkoniyatini beradi.

Power Point da yana **«Автофигуры»** (Avtofiguralar) degan imkoniyatlar mavjud. Rasm chizish uchun mo'ljallangan tugmachalar chap tomondagi **«Рисование»** (Chizish) xamda **«Рисование** » (Chizish) panellariga joylashgan.

Boshqa taqdimotga slaydlarni ko'chirish

1. Joriy hamda slayd kuchirilayotgan taqdimotlarni oching va «Slaydlarni saralash»rejimiga uting.

2. Ikkala slaydni bir oynada yonma-yon aks ettirish uchun **«Окно»** menyusida **«Упорядочить всё»** (Barchasi tartiblansin) buyrug'ini tanlang.

3. Tanlangan slaydni bir taqdimotdan ikkinchisiga olib o’ting.

Boshqa taqdimotga slaydlardan nusxa olish

1. Boshka taqdimotda nusxasi o’tkaziladigan slaydlardan oldin turuvchi slaydni belgilang.

2. **«Вставка»** (qo’yish) menyusidagi **«Слайды из файлов»** (Fayllardan slaydlar) buyrug’ini tanlang.

3. Nusxasi o’tkaziladigan slaydlar turgan taqdimotni toping va uni belgilang.

4. Nusxasi o’tkaziladigan slaydlarni belgilang va **«Вставить»** (qo’yilsin) tugmachasini bosing.

Slaydlarni o’chirish

1. O’chirilishi kerak bo’lgan slaydni belgilang.

«Правка» menyusidagi **«Удалить слайд»** (Slaydni olib tashlash) buyrug’ini tanlang.

Biz dasturda slaydlar tayyorlash bo`yicha dastlabki asosiy ko`nikmalarni o`zlashtirdik.

1.3. Darslarda taqdimotlardan foydalanish holatini o`rganish

Biz tadqiqot maqsad-vazifalaridan kelib chiqib, anketa - so`rov tadqiqot metodi yordamida Namangan viloyati tumanlarida va Namangan shahri maktablarida mehnat faoliyat olib borayotgan boshlang`ich sinf o`qituvchilari bilan suhbat olib bordik, anketa savollari bilan murojaat qildik. Maqsadimiz ularning pedagogik faoliyatida darslarda taqdimotlar tayyorlash va ulardan qay darajada foydalanishlari hamda mazkur sohadagi ishchan holatni o`rgandik.

Savollarni shakllantirishda quyidagilarga e’tibor berdik:

- Darslarda kompyuterdan foydalanishi xolati;
- O’quv xonasida kompyuterdan foydalanish imkoniyati mavjudligi;
- Pedagoglarning qaysi dasturlarda ishlay olishi;
- Multimedia darsliklaridan foydalanishi;
- Taqdimot (slaydlar) vositasida darslar tashkil eta oladimi , yo’qmi?
- Darslar uchun turli rasm, chizma, musiqalar, video roliklarni jamlay olishi;

▪ Taqdimot (slaydlar) darslari tayyorlash ucnun uslubiy yordam berish zarurati kabilarga.

Turli anketalarni o`rganib chiqib, pedagoglarga murojaat qilish uchun quyidagi savollarni shakllantirdik:

▪ Siz darslarda kompyuterdan foydalanasizmi?

▪ O'quv xonangizda kompyuterdan foydalanish imkoniyati bormi?

▪ Qaysi dasturlarda ishlay olasiz?

▪ Qaysi darslar uchun multimedia darsliklari mavjud?

▪ Multimedia darsliklarini qayerdan olgansiz?

▪ Ulardan foydalanishni bilasizmi?

▪ Darsliklar dan darsning qaysi qismida foydalanasiz?

▪ Taqdimot (slaydlar) vositasida darslar tashkil eta olmasligingizga sabab nima?

▪ Taqdimot (slaydlar) darslari tayyorlaganmisiz?

▪ Siz darslar uchun turli rasm, chizma, musiqalar, video roliklar jamlaganmisiz?

▪ Taqdimot (slaydlar) darslari o'zlashtirishg aqanday ta'sir etadi?

▪ Qaysi mavzularga oid slaydlar tayyorlagansiz?

▪ Turli rasm, chizma, musiqalar, video roliklarni qanday jamlagansiz

▪ Kompyuter vositalarining qanday qulay va noqulayligi bor?

▪ Taqdimot (slaydlar) darslari tayyorlash ucnun uslubiy yordam kerakmi?

Tuzilgan anketa savollarni quyidagi shakllga keltirdik.

ANKETA SAVOLLLARI

So'rovda ishtirokingiz uchun rahmat. Savollarga bergan javoblaringiz tadqiqot ishimiz ilmiy-amaliy ahamiyatini oshirishda hamda Siz va kasbdoshlaringiz ish faoliyatiga zaruriy uslubiy yordam beruvchi xulosalar va tavsiyalr ishlab chiqishda asos bo'ladi.

№	Berilgan savollar	Ha (yoki javobingiz)	Yo'q (yoki javobingiz)
1	Siz darslarda kompyuterdan foydalanasizmi?		

2	O’quv xonangizda kompyuterdan foydalanish imkoniyati bormi?		
3	Qaysi dasturlarda ishlay olasiz (*nomlanishi yozing*)?		
4	Qaysi darslar uchun multimedia darsliklari mavjud?		
5	Multimedia darsliklarini qayerdan olgansiz?		
6	Ulardan foydalanishni bilasizmi?		
7	Darsliklardan darsning qaysi qismida foydalanasiz?		
8	Taqdimot (slaydlar) vositasida darslar tashkil eta olmasliginga sabab nima?		
9	Taqdimot (slaydlar) darslari tayyorlaganmisiz?		
10	Siz darslar uchun turli rasm, chizma, musiqalar, video roliklar jamlaganmisiz?		
11	Taqdimot (slaydlar) darslari o’zlashtirishg aqanday ta’sir etadi?		
12	Qaysi mavzularga oid slaydlar tayyorlagansiz?		
13	Turlirasm, chizma, musiqalar, video roliklarni qan day jamlagansiz (*kasbdoshlardan, internetdan*)?		
14	Kompyuter vositalarining qanday qulay va noqulayligi bor?		
15	Taqdimot (slaydlar) darslari tayyorlash ucnun uslubiy yordam kerakmi?		

Anketa so’rovlarida ishtirok etgan o’qituvchi

Viloyat_____
Tuman (shahar) _____
Maktab_____
ISh_____imzo_____

So’rovlarda quyidagi o`qituvchilar ishtirok etdilar:

G.Azimova – 31-maktab boshlang`ich sinf o`qituvchisi, Namangan shahar;

M.Usmanova – 7-maktab boshlang`ich sinf o`qituvchisi, Namangan shahar;

M.Muxitdinova – 5- maktab boshlang`ich sinf o`qituvchisi, Namangan shahar;

D. Shomirzayeva – 5-maktab boshlang`ich sinf o`qituvchisi, Namangan shahar;

M. Qodirova – 5-maktab boshlang`ich sinf o`qituvchisi, Namangan shahar;

M.Mamatova– 5-maktab boshlang`ich sinf o`qituvchisi, Namangan shahar;

G.Boydadayeva – 31-maktab boshlang`ich sinf o`qituvchisi, Namangan shahar;

N. Ismailova – 5-maktab boshlang`ich sinf o`qituvchisi, Namangan shahar;

U.Mamatqulova – 32-maktab boshlang`ich sinf o`qituvchisi, Uchqo`rg`on tumani;

N. Sarimsaqova – 32-maktab boshlang`ich sinf o`qituvchisi, Uchqo`rg`on tumani.

Anketada berilgan javoblarni o`rganib chiqdik.

Siz darslarda kompyuterdan foydalanasizmi? Savolga —

10 ta ishtirokchidan – 10 tasi =**Ha** javobini berdilar;

O’quv xonangizda kompyuterdan foydalanish imkoniyati bormi?

Savolga — 10 ta ishtirokchidan – 10 tasi =**Ha** javobini berdilar;

Qaysi dasturlarda ishlay olasiz ? Savolga —

10 ta ishtirokchidan – 7 tasi Word dasturi, 2 tasi Word, Power Point, Excel dasturidan foydalanishini, 1 tasi **Yo`q** javobini berdilar;

Qaysi darslar uchun multimedia darsliklari mavjud? Savolga —

10 ta ishtirokchidan – 5 tasi atrofimizdagi olam darslarida = **Ha** javobini berdilar;

Multimedia darsliklarini qayerdan olgansiz? Savolga —

10 ta ishtirokchidan – 6 tasi Xalq ta’limi boshqarmasidan, 1 tasi malaka oshirish tizimidan deb, 3 tasi javob bermadi;

Ulardan foydalanishni bilasizmi? Savolga —

10 ta ishtirokchidan – 10 ta =**Ha** javobini berdilar;

Darsliklardan darsning qaysi qismida foydalanasiz? Savolga —

10 ta ishtirokchidan – 8 tasi yangi mavzu bayonida, 2 tasi mustahkamlash darsida deb javob berdilar;

Taqdimot (slaydlar) vositasida darslar tashkil eta olmasligingizga sabab nima? Savolga —

10 ta ishtirokchidan – 4 ta tashkil eta olishini, 2 tasi murakkab ekanligi, 4 tasi aniq javob bera olmadilar.

Taqdimot (slaydlar) darslari tayyorlaganmisiz? Savolga —

10 ta ishtirokchidan – 7 ta si oddiy variantda tayyorlashini, 3 tasi Yo`q deb javob berdilar;

Siz darslar uchun turli rasm, chizma, musiqalar, video roliklar jamlaganmisiz? Savolga —

10 ta ishtirokchidan – 8 ta =**Ha** va 2 tasi **Yo`q** deb javob berdilar;

Taqdimot (slaydlar) darslari o’zlashtirishga qanday ta’sir etadi? Savolga —

10 ta ishtirokchidan – 10 ta = **Ijobiy ta`sir etadi** deb javob berdilar;

Qaysi mavzularga oid slaydlar tayyorlagansiz? Savolga —

10 ta ishtirokchidan – faqat 1 ta ishtirokchi atrofimizdagi olam darslari uchun tayyorlaganligini bildirdi;

Turli rasm, chizma, musiqalar, video roliklarni qanday jamlagansiz? Savolga —

10 ta ishtirokchidan – 3 tasi kasbdoshlardan, 4 tasi internetdan, 1 tasi o`zi tayyorlashi, 2 tasi aniq javob bermadi;

Kompyuter vositalarining qanday qulay va noqulayligi bor? Savolga —

10 ta ishtirokchidan – 1 tasi vaqtni tejasini bildirgan, qolganlari aniq javob keltirmagan, qisqa qulay deb javob berdilar;

Taqdimot (slaydlar) darslari tayyorlash ucnun uslubiy yordam kerakmi? Savolga —

10 ta ishtirokchidan – 9 tasi =**Ha deb,** 1 tasi **Yo`q** deb javob berdilar.

Olingan javoblardan ko`rinib turibdiki, anketa so`rovlarida qatnashgan o`qituvchilarning aksariyati taqdimotlar moxiyati, ahamiyati, ularning didaktik funksiyalarini yaxshi bilmaydilar, slaydlar tayyorlash bo`yicha yetarli bilim va ko`nikmalari shakllanmagan, darlarning faqat yangi mavzu bayonida foydalanishi, aksariyati slaydlar tayyorlay olmasligi hamda faqat bir nafari atrofimizdagi olam darslari uchun taqdimot tayyorlaganligini bildirdi.

Bu natijalar tahlildan kelib chiqib, o`z oldimizga yuqorida kuzatigan javoblarga asoslangan tadqiqiy ishlarni amalga oshirishni rejalashtirdik.

II-BOB. ATROF OLAM DARSLARI UCHUN TAQDIMOTLAR TAYYORLASHNING USLUBIY JIXATLARI

2.1. Atrofimizdagi olam darslari uchun taqdimotlar tayyorlash

Taqdimot tayyorlash uchun Microsoft Office Power Point dasturidan foydalaniladi. Dasturga kirish uchun kompyuterning ishchi oynasining pastki chap tarafida joylashgan “Пуск” tugmasiga kiriladi va dastur menyulari ochiladi. “Пуск” tugmasiga kirilganda uning ko’plab dastur menyulari ekranning pastki chap tomonida aks etadi. Dastur menyulari orasidan Power Point dasturi tanlanadi va sichqonchaning chap tugmasi ikki marta bosilib darstur ishga tushiriladi.



9-rasm. Power Point dasturini ishga tushirish

Dastur ishga tushgach ekranning o’rta qismida yangi slayd oynasi joylashgan bo’lib unda “Загаловок слайда” va “Подзагаловок слайда” yozuvlari mavjud bo’ladi. Ekranning yuqori chap tomonida esa slaydning kichraytirilgan holati mavjud bo’ladi.

Slaydning dizaynini o’zgartirish uchun ekranning yuqori qismidagi panellar oynasidan “Дизайн” oynasiga o’tiladi.



10-rasm. Slayd dizaynini o’zgartirish

Dizaynini o’zgartirgach slaydni ko’paytirib olamiz. Buning uchun dizayni o’zgartirilgan slaydning ekranning yuqori chap tarafida joylashgan kichraytirilgan qismi tagiga kursorni olib borib sichqonchaning o’ng tugmasi bosiladi u yerdan “Создать слайда” deyilgan yozuv ustiga sichqonchaning chap tugmasi bir marta bosiladi va slayd ko’paytiriladi. (10-11rasm)



11-rasm. Slaydni ko’paytirish



12-rasm. Qo’shimcha ochilgan slayd oynasi

Slaydga so’z yozish uchun ”Главная” oynasidan “Макет” qismidan kerakli usul tanlanadi va slaydda yozish uchun joy hosil qilinadi. Hosil bo’lgan joyga “DARSNING OLTIN QOIDALARI” deb yoziladi. So’zning shrifti turini o’zgartirish uchun ”Главная” oynasiga o’tiladi, u yerdan kerakli shrift tanlanadi.



13-rasm. Shrift turini o’zgartirish

Yozilgan so’z ko’rinishini o’zgartirish uchun “Формат” oynasidan “Текстовые эффекты” qismidan istagan shrift turi tanlanadi. Masalan:“Преобразовать”qismiga o’tiladi va shrift shaklini o’zgartiriladi.



14-rasm. Shrift shaklini o’zgartirish

Yozilgan so’zning hajmini kattalashtirish uchun ”Главная” oynasida



ko’rinishdagi ikki A harfi joylashgan bo’ladi. Kichik a harfiga bosilganda yozuvni kichiklashadi, Bosh A harfi yozuvni kattalashadi.



15-rasm. Yozuv hajmini kattalashtirirsh

Yozuvning rangini o’zgartirish uchun “Формат” oynasida joylashgan A harf ko’rinishidagi harflar orasidan istalgan ko’rinishdagisi tanlanadi shrift ko’rinishi

o’zgaradi.



16-rasm. Yozuvga fonli rang berish

Slaydga shakl joylashtirish uchun “Вставка” oynasining “Фигуры” qismiga kiriladi, u yerda shu ko’rinishda figuralar joylashgan bo’ladi, ular orasidan shakl tanlanadi. Figura tanlab bo’lgandan so’ng kursor “+” ko’rinishiga ega bo’ladi, shu holatida kursorni slaydning kerakli joyiga olib kelinadi va sichqonchaning o’ng tugmasi qo’l uzmay bosib sichqoncha hatarakatlantiriladi. Shakl kerakli ko’rinishga kelgandan so’ng sichqoncha tugmasidan barmoq olinadi.



17-rasm. Shakl tanlash



18-rasm. Tanlangan shakl

Hosil qilingan shakl ichiga so’z yozish uchun kursorni shakl ustiga olib kelib sichqonchaning o’ng tugmasida joylashgan “Изменить текст” qismidan foydalanib shakl ichiga so’z yoziladi.



19-rasm. Shakl ichiga so’z yozish

Shakllar sonini ko’paytirish uchun sichqonchaning o’ng tugmasidagi “Копировать” so’ziga kiriladi va shakllar sonini ko’paytiriladi.



20-rasm. Sichqonchaning o’ng tugmasidan “Копировать” qismidab foydalanib shakllar sonini ko’paytirish



21-rasm. Shakllarning ko’paytirilgan holati

Slaydga so’z yozish uchun ”Главная” oynasidan “Макет” qismidan kerakli usul tanlanadi va slaydda yozish uchun joy hosil qilinadi.



22-rasm. Yozish uchun joy ajratish

Hosil qilingan joyga “BAHORDA HASHAROTLAR HAYOTI Daraxtlarning po’stlog’i ostida, tanasidagi kovaklarda, tuproq orasida qish bo’yi uxlab yotgan hasharotlar uyg’onadi. Ayniqsa, asalari, sariqari, har xil kapalaklar, xonqizi, ninachi, pashshalar, chivinlar g’imirlab qoladi. Katta-kichik chumolilar paydo bo’ladi” kabi so’zlari kiritiladi.



23-rasm. yozish uchun ajratilgan joyga so’z kiritish

Slaydga rasm joylashtirish uchun ekranning yuqori qismidagi panellar orasidan “Вставка” oynasidan “Рисунок” qismiga o’tiladi. U yerda mavjud fayllar

ichidan kerakli rasm tanlanadi va “Вставить” tugmasini bosib rasmni slaydga qo’shiladi. (24-25-rasm)



24-rasm. Slaydga rasm joylashtirish



25-rasm. Qo’yilish kerak bo’lga rasmni slaydga qo’shish

Qo’yilgan rasm ko’rinishini o’zgartirish uchun “Формат” oynasiga o’tiladi, u yerda har xil turdagin ramkalar joylashgan bo’ladi. Ular orasidan kerakli ko’rinish tanlanadi va rasm ko’rinishi o’zgartiriladi



26-rasm. Rasm ko'rinishini o'zgartirish

Slaydga diagramma qo'shish uchun "Вставить" oynasidagi "SmartArt" qismidan foydalaniladi. "SmartArt" oynasiga o'tilgandan so'ng turli diagrammalar chiqadi va shu diagrammalarning ham turli ko'rinishlari paydo bo'ladi. Bu kio'rinishlardan biri tanlanib olinadi. (25-26-rasm)



27-rasm. Diagramma qo'shish

Qo'shilgan diagramaning qismlarini ko'paytirish uchun diagrammaning bir qismiga kursorni olib boriladi va sichqonchaning o'ng tugmasi bosiladi, undan "добавить фигуру" qismi tanlanib diagrammaning bir qismi ko'paytiriladi. (27-28-rasm)



27-rasm. tanlangan diagrammaning qismlarini ko’paytirish



28-rasm. Diagrammaning ko’paytirilgan qismi

Diagrammaga rang berish uchun diagrammaning bir qismiga kursorni olib borib sichqonchaning o’ng tugmasi bosiladi va quyidagi menyu chiqadi. Undan kerakli rang tanlanib diagramma rangi o’zgartiriladi.(29-30-rasm)



29-rasm. Sichqonchaning o’ng tugmasiga bosib diagramma qismlarining rangini o’zgartirish



30-rasm. Diagrammaning qismlariga rang berilgan tayyor holati

2.2. Olib borilgan anketa-so`rov ishlari va natijalar tahlili

Bitiruv malakaviy ishi vazifalari takroriy anketa-so`rov ishlari amalga oshirildi. Avval, tadqiqot ishimizning yondashuvidan kelib chiqib, o’qituvchilardan og’zaki so’rovlar xamda anketa savolnomalari yordamida ularning darslariga yondashuvlarini o’rgandik. Aniqlangan xolatlardan kelib chiqib ularga tegishli uslubiy yordamlar berdik. Yakunida yana anketa so’rovlari

o’tkazdik. Natijada tadqiqot ishimiz maqsadi va vazifalari hamda ilmiy farazi yuzasidan olgan natijalar ijobiy bo’lib chiqdi (*O’tkazilgan anketa-so’rov blankalari ilova qismida joylashtirildi)*.

Savollarni shakllantirishda quyidagilarga e’tibor berdik:

▪ Darslarda kompyuterdan foydalanish holati;

▪ Pedagoglarning qaysi dasturlarda ishlay olishi;

▪ Taqdimot (slaydlar) vositasida darslar tashkil eta olishi?

▪ Taqdimot (slaydlar) darslari tayyorlash ucnun uslubiy yordam olishlari zarurati kabilarga.

Pedagoglarga savollar bilan murojat qilish uchun quyidagi savollarni shakllantirdik:

▪ Siz darslarda kompyuterdan foydalanasizmi?

▪ Qaysi dasturlarda ishlay olasiz?

▪ Taqdimot (slaydlar) darslari tayyorladingizmi?

▪ Taqdimot (slaydlar) darslari o’zlashtirishga ijobiy ta’sir etdimi?

▪ Qaysi mavzularga oid slaydlar tayyorladingiz?

▪ Turli rasm, chizma, musiqalar, video roliklarni jamladingizmi?

▪ Kompyuter vositalarining qanday qulay jixatlarini topdingiz?

▪ Taqdimot (slaydlar) darslari tayyorlash uchun uslubiy yordam oldingizmi?

▪ Kompyuter vositalarining qanday qulayligini sezdingiz?

▪ Multimedia ilovalari (darslari)dan foydalanishni o`zlashtirdingizmi?

▪ Taqdimot slaydlaridan darsning qaysi qismida foydalishni tavsiya etasiz?

Tuzilgan anketa savollarini quyidagi shaklga keltirdik.

ANKETA SAVOLLARI

So’rovda takror ishtirokingiz uchun rahmat. Savollarga bergan javoblaringiz tadqiqot ishimiz ilmiy-amaliy ahamiyatini asoslashda hamda xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishda asos bo’ladi.

№	Berilgan savollar	Xa (yoki javobingiz)	Yo'q (yoki javobingiz)
1	Siz darslarda kompyuterdan foydalanasizmi?		
2	Qaysi dasturlarda ishlay olasiz? (*nomlanishi yozing*)		
3	Taqdimot (slaydlar) darslari tayyorladingizmi?		
4	Qaysi mavzularga oid slaydlar tayyorladingiz?		
5	Taqdimot (slaydlar) darslari o'zlashtirishga ijobiy ta'sir etdimi?		
6	Taqdimot (slaydlar) darslari tayyorlash uchun uslubiy yordam oldingizmi?		
7	Siz darslar uchun turli rasm, chizma, musiqalar, video roliklar jamladingizmi?		
8	Kompyuter vositalarining qanday qulayligini sezdingiz?		
9	Multimedia ilovalari (darslari)dan foydalanishni o`zlashtirdingizmi?		
10	Taqdimot slaydlaridan darsning qaysi qismida foydalishni tavsiya etasiz?		

Anketa so'rovlarida ishtirok etgan o'qituvchi

Viloyat _____

Tuman (shahar) _____

Maktab _____

Ish _____ imzo _____

Takroriy so’rovlarda dastlabki ishtirokchi o`qituvchilar (Namangan shahar 31-maktab, 7-maktab, 5-maktab xamda Uchqo`rg`on tumani 32-maktab boshlang`ich sinf o`qituvchilari) qatnashdilar.



ANKETA SAVOLLARI

So'rovda ishtirokingiz uchun rahmat. Savollarga bergan javoblaringiz tadqiqot ishimiz ilmiy-amaliy ahamiyatini oshirishda hamda siz va kasbdoshlaringiz ish faoliyatiga zaruriy uslubiy yordam beruvchi xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqishda asos bo'ladi.

№	Berilgan savollar	Xa (yoki javobingiz)	Yo'q (yoki javobingiz)
1	Siz darslarda kompyuterdan foydalanasizmi?	ha	
2	O'quv xonangizda kompyuterdan foydalanish imkoniyati bormi?	ha	
3	Qaysi dasturlarda ishlay olasiz (nomlanishi yozing) ?	Word	
4	Qaysi darslar uchun multimedia darsliklari mavjud?	Ona tili, matematika, atrof	
5	Multimedia darsliklarini qayerdan olgansiz?	Internetdan	
6	Ulardan foydalanishni bilasizmi?	ha	
7	Darsliklardan darsning qaysi qismida foydalanasiz?	yangi mavzu ha, mustahkam	
8	Taqdimot (Slaydlar) vositasida darslar tashkil eta olmasligingizga sabab nima?		yoq
9	Taqdimot (Slaydlar) darslari tayyorlaganmisiz?	ha	
10	Siz darslar uchun turli rasm, chizma, musiqalar, video roliklar jamlaganmisiz?		yoq
11	Taqdimot (Slaydlar) darslari o'zlashtirishga qanday ta'sir etadi?	yaxshi	
12	Qaysi mavzularga oid slaydlar tayyorlagansiz?	Yigirdinchi topish va dars mavzulariga oid	
13	Turli rasm, chizma, musiqalar, video roliklarni qanday jamlagansiz (kasbdoshlardan, internetdan) ?	kasbdoshlardan	
14	Kompyuter vositalarining qanday qulay va noqulayligi bor?	Darsdan tashqari vaqtda yaxshi beradi	
15	Taqdimot (Slaydlar) darslari tayyorlash uchun uslubiy yordam kerakmi?	ha	

Anketa so'rovlarida ishtirok etgan o'qituvchi Sinova I

Viloyat Namangan
Tuman (shahar) Namangan
Maktab 32
Ish boshlar imzo

ANKETA SAVOLLARI

So'rovda takror ishtirokingiz uchun rahmat. Savollarga bergan javoblaringiz tadqiqot ishimiz ilmiy-amaliy ahamiyatini asoslashda hamda xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishda asos bo'ladi.

№	Berilgan savollar	Xa (yoki javobingiz)	Yo'q (yoki javobingiz)
1	Siz darslarda kompyuterdan foydalanasizmi?	Ha	
2	Qaysi dasturlarda ishlay olasiz? (nomlanishi yozing)	Word, power point	
3	Taqdimot (Slaydlar) darslari tayyorladingizmi?	Ha	
4	Qaysi mavzularga oid slaydlar tayyorladingiz?	Bahorda hasharotlar	
5	Taqdimot (Slaydlar) darslari o'zlashtirishga ijobiy ta'sir etdimi?	Albatta	
6	Taqdimot (Slaydlar) darslari tayyorlash uchun uslubiy yordam oldingizmi?	Ha	
7	Siz darslar uchun turli rasm, chizma, musiqalar, video roliklar jamladingizmi?	Ha	
8	Kompyuter vositalarining qanday qulayligini sezdingiz?	Vaqtni tejaydi, tashvirlash	
9	Multimedia ilovalari (darslari)dan foydalanishni o`zlashtirdingizmi?	Ha	
10	Taqdimot slaydlaridan darsning qaysi qismida foydalishni tavsiya etasiz?	Barcha qismda	

Anketa so'rovlarida ishtirok etgan o'qituvchi Muxiddinova Muhayyo

Viloyat Namangan
Tuman (shahar) Namangan
Maktab 7-sonli
Ish Bosh. sinf o`q imzo

31-rasm. O`tkazilgan anketa-so`rov varaqalari

O’tkazilgan so’rovlarimiz natija va xulosalari:

So’rovlarda 10 nafar boshlang`ich sinf o’qituvchilari ishtirok etdilar. Ularning 2 nafari, ya’ni 20 % Word, Power Point, Excel dasturidan foydalanishini, 5 nafari, ya’ni 50% Atrofimizdagi olam darslarida multimedia darsliklaridan foydalanishini bildirdilar, 4 nafari, ya’ni 40% taqdimot (slaydlar) vositasida darslar tashkil eta olmasliklari, 1 nafari, ya’ni 10 % Atrofimizdagi olam darslari uchun tayyorlaganligini bildirdi, 9 nafari, ya’ni 90 % taqdimot (slaydlar) darslari tayyorlash ucnun uslubiy yordam kerakligini bildirganlar.



1-diagramma. 1-anketa-so`rov natijalari tahlili

So’rovlarda 10 nafar boshlang`ich sinf o’qituvchilari ishtirok etdilar.

Takroriy so’rovlardan so’ng: Qaysi dasturlarda ishlay olasiz? Savoliga 10 nafari, ya’ni 100 % MS Power Point dasturida ishlay olishini bildirdilar, Qaysi mavzularga oid slaydlar tayyorladingiz?



2-diagramma. Takroriy anketa-so`rov natijalari tahlili

Savoliga 10 nafari, ya’ni 100 % Atrofimizdagi olam darslari mavzularidan deb javob berdilar, Taqdimot (slaydlar) darslari o’zlashtirishga ijobiy ta’sir etdimi? Savoliga 10 nafari, ya’ni 100 % ha deb javob berdilar, Taqdimot (slaydlar) darslari

tayyorlash uchun uslubiy yordam oldingizmi? Savoliga 10 nafari, ya'ni 100 % ha deb javob berdilar, Taqdimot slaydlaridan darsning qaysi qismida foydalishni tavsiya etasiz? Savoliga 10 nafari, ya'ni 100 % darslarning barcha qismida deb javob berdilar.

O'tkazilgan so'rovlardan ko'rinib turibdiki, atrofimizdagi olam darslari jarayonida taqdimotlardan foydalanish samaradorligi oshganligi, taqdimot slaydlari tayyorlashning va slaydlardan foydalanishning didaktik sharoitlari yaratilganligi, o`qituvchilar tomonidan taqdimot slaydlaridan foydalanishning uslubiy, ilmiy-nazariy asoslari o`zlashtirilganligi namoyon bo`ldi.

Tadqiqot ishi yuzasidan atrofimizdagi olam darslarida samarali foydalaniladigan taqdimotlar tayyorlash uslubiy jihatlari, ularning amaliy ahamiyati, taqdimotlar loyihalari tayyorlandi, taqdimotlardan darslarda samarali foydalanish bo'yicha uslubiy tavsiya beruvchi qo'llanma tayyorlashga asos bo'ldi.

2.3. Taqdimotlar tayyorlash bo'yicha uslubiy maslahatlar

Ushbu olib borgan bitiruv ishim atrofimizdagi olam darslarida taqdimotlardan amaliy foydalanish jihatlarini ko'rsatadi. Maqsadim - o`quvchilarni tabiat haqidagi materiallarni qulay didaktik-psixologik sharoitlarda o'rganishga undashdir, o`qituvchilarni taqdimotlar yaratishga, ularni atrofimizdagi olam darslarida ishlatish yuzasidan uslubiy ko`rsatmalar berish.

Taqdimotlarni darslarda ishlatish ta'lim vositasi sifatida yangi o'rganiladigan dars sifatida oshirmoqda. Ushbu ta'lim metodikasining tavsifi atrofimizdagi olam o'qituvchilari tomonidan mavzuga bo'lgan qiziqishni kuchaytirishga va o'zaro loyihaviy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Atrofimizdagi olam darslari uchun taqdimot slaydlarini tayyorlasni o'rganish axborot texnologiyalari? Muayyan dasturlardan foydalanmasdan amalga oshirilishi mumkin emas, chunki ular o'quv materiallarini ramziy qabul qilib, o'quvchilarni tabiat xaqidagi materiallarni o'rganishga undashga yordam beradi. O'qitish disklari, interaktiv xaritalar, elektron ko'rgazmali qo'llanmalar kutubxonasi, videofilmlar va ularning qismlari, taqdimotlar darslar davomida

ko’pchilik tomonidan keng qo'llaniladi. Taqdimotlar ushbu ro'yxatda alohida o'rin egallaydi, chunki ular nafaqat axborot manbai sifatida, balki o'quvchilar uchun ham yaratilgan. Ko'p yillardan buyon darslardagi va boshqa ommaviy tadbirlarda taqdimotlardan foydalanish bo'yicha ko'plab tajribalar to'plangan va hozirgi texnik imkoniyatlar ularni yaratishga va namoyish etishga imkon beradi. Hozirgi kunda o'quvchilarni taqdimotlar bilan tanishtirishni 1-sinfdan boshlab boshlanmoqda. 1 va 2-sinflardagi darslar bo'yicha men tomonimdan yaratilgan kichik prezentatsiyalar yoki internetning ushbu asrning darajasiga mos keladigan taqdimotlaridan foydalanish, masalan 1- sinfda "Uy hayvonlari", “Qushlar” 2-sinfda "Bahorda hasharotlar hayoti" va "Yil fasllari" juda samaralidir. Ba'zan men grafikalar, diagrammalar, matn va statistik materiallar bilan boyitilgan murakkabroq slaydlardan xam foydalanaman. Biroq,1-2-sinf o'quvchilari uchun o'z xohish-istaklari va yosh xususiyatlariga mos taqdimotlar tayyorlashni taqozo etadi.

Internetdan slaydlar to'plami, masalan, "Qizil kitob", "Dunyo okeanining organizmlari" kabi taqdimotlar yaratishning yagona namunalari, shuningdek sayohatlar, sarguzashtlarni aks ettirgan fotosuratlar mavjud. 2-sinfda, ushbu fotolavxalardan taqdimotlar tayyorlashda qo'shimcha materiallar sifat ida foydalanish, masalan "Suv-hayot manbayi" dars-loyihasini tayyorlash mumkin.

Taqdimotdan foydalanish xayoliy ma'lumotlarni taqdim etishga yordam beradi, zamonaviy ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini beradi. Taqdimot har doim har qanday slaydda to'xtatilishi mumkin, axborotni muhokama qilish, ma'lumotni tahlil qilish, o'z xulosangizni chiqarishdir.Taqdimot ilmiy-amaliy anjumanlar va turli tanlovlarning ajralmas qismidir. Taqdimotlarni tashkil etishda o`quvchilar axborotni qidirish va tanlashda fanlararo ko'nikmalarga ega bo'lib, o'qitishda faol ishtirok etishadi va ommaviy nutqda tajriba orttirishadi. Elektron taqdimotlar tayyorlash bo'yicha tavsiyalar oladilar.

Kompyuter va multimediyali proyektorning paydo bo'lishi ma'ruzachi nutqining sifatli taqdim etilishida, masalan, tovush, video va animatsiyaning uyg'unligini ta'minlash uchun barcha kerakli daqiqalarni birlashtirgan taqdimot ko'rinishida ko'rgazma materiallarini tayyorlash va namoyish etishga imkon berdi.

Microsoft Office paketining bir qismi bo'lgan PowerPoint dasturi ana shunday taqdimotlarni yaratish uchun mo'ljallangan. Uning yordami bilan foydalanuvchi tezda hisobotni yagona uslubda tayyorlaydi va shu bilan tinglovchilar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarning darajasini sezilarli darajada oshiradi. Power Point-da tayyorlangan taqdimot yoki "slide film" - slaydlar ketma-ketligi bo'lib, unda taqdimotning rejasi va asosiy ifodalari, ko'rgazma materialiga kiritilgan barcha zarur jadvallar, diagrammalar, chizmalar mavjud bo'lishi mumkin. Agar kerak bo'lsa, taqdimotga video effektlar va ovoz qo'shilishi mumkin. Elektron taqdimotning afzalliklari shundaki, o`quvchilarning xususiyatlariga moslashishga, materialning tezligini o'zgartirishga imkon beradi.

- o'qituvchining hayoti samaradorligini kamaytirishga imkon beradi, bu holda u zamonaviy ta'lim jarayonining texnologiga aylanadi, o'qitishning motivatsiyasini oshiradi.

- ko'rinishlilikni ta'minlaydi, bu materialni to'liq idrok etishga va materiallarni yaxshiroq yodlashga hissa qo'shadi. Bunga qo'shimcha ravishda, animatsiya va video fragmentlarni qo'shish orqali dinamik jarayonlarni namoyish qilish mumkin.

- audio fayllarni o'ynatish imkonini beradi, bu material tasvirlar bilan quvvatlanadi va hislar darajasida qabul qilinadi. Shunday qilib, ma'lumotlar sezgi darajasida intuitiv ravishda belgilanadi.

Tez va qulay foydalanish.

Kompyuterda taqdimotni tashkil qilishdan oldin, quyidagilarni aniqlash juda muhim:

- taqdimotning maqsadi, uning mavzusi – qabul qiluvchi siz aytmoqchi bo'lgan narsalarning ko'pini tushunishi kerak;

- slaydlarning taxminan soni - slaydlar juda ko'p bo'lmasligi kerak, aks holda ular juda tez o'zgaradi va tinglovchilarda ro'yxatga olish vaqti bo'lmaydi;

- axborotni eng muvaffaqiyatli tarzda taqdim etish;

- slayd tarkibi;

- har bir slaydning grafik dizayni;

- taqdimotni yaratish bosqichlari

Taqdimotni yaratish bosqichlari:

- taqdimotni maqsadlarini rejalashtirish;
- tomoshabinlarni o'rganish;
- material taqdimotining tuzilishi va mantiqiyligini shakllantirish.

Taqdimot dizaynini ishlab chiqish matn va grafik ma'lumotlarning o'zaro bog'liqligini aniqlashdir.

Taqdimotlarga qo'yiladigan talablar:

- axborot mazmunli bo'lishi kerak;
- sarlavhalar tomoshabinlarni qiziqtirishi kerak;
- so'zlar va jumlalar qisqa bo'lishi kerak;
- fe'llarning vaqtinchalik shakli bir xil

Axborot joylashuviga qo'yiladigan talablar:

- eng muhim ma'lumotlar ekranning markazida bo'lishi;
- rasmning sharhlari pastda joylashgan bo'lishi.

Shriftlarga talablar:

- sarlavha kattaligi 24 shriftdan kam emas, qolgan ma'lumot 18 shriftdan kam emas;
- bir taqdimotda ikkita yoki uchta shrift turidan foydalanish mumkin, undan ko'p emas;

Ma'lumotni ta'kidlash uchun yozuvdan foydalanish: qalin, kursiv yoki pastki chizilgan.

Chizilgan shriftlar (masalan, Arial yoki Tahoma ning turli xil versiyalari) dan foydalanish kerak va shrift hajmi juda katta bo'lishi kerak. Kursiv yoki o`ta serjilo shriftlarni ishlatmaslik afzal, chunki ba'zida matnning tushunchasi yomonlashadi. Ba'zi hollarda katta (kapital) harflar bilan yozish yaxshiroqdir (shundan keyin siz shriftning kichik hajmidan foydalanishingiz mumkin). Ular yaxshi qalin ko'rinadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, katta ekrandagi matn va rasmlar (yaxshi emas va katta bo'lmagan) kompyuter ekranidan ham ko'rinadi. Ko'pincha chizmalarga yoki

jadvallarga imzo qo'yish uchun nozik bosma (10 balldan kam) ogohlantirish bilan o'rnatiladi: katta ekranda hamma narsa ko'rinadi. Bu noto'g'ri tushuncha: shrift shubhasiz yanada kengaytiriladi, lekin tomoshabinga masofa juda katta bo'ladi.

Ma'lumotni ta'kidlash usullari:

ramkalar, chegaralar, turli shrift rangi, dinamik sozlash, blok.

Eng muhim dalillarni tasvirlash uchun chizmalar, diagrammalar, strelkalardan foydalaniladi.

Orqa fon va shrift uchun ranglarning to'g'ri kombinatsiyasini tanlash muhimdir. Ular, masalan, fon yorug'ligi va harflarning qorong'i yoki teskarisi bilan farq qilishi kerak. Qora matn - oq fonni har doim ham taqdimotlar uchun muvaffaqiyatli kombinatsiya deb atash mumkin emas, chunki u tez-tez ko'zlarda chayqalay boshlaydi (ayniqsa, shrift kichik bo'lsa) va bundan tashqari, materialni samarali idrok etish uchun zarur bo'lgan effektga erishilmaydi. Shrift tanlovi bilan bog'liq qiyinchiliklar tufayli fotosuratlarni fon sifatida ishlatish har doim ham muvaffaqiyatli emas. Bu holda, biz ba'zida bir nechta fotosuratlar kamdan-kam hollarda ishlatishimiz yoki matnni fotosuratga emas, balki rangli substrat shakl, ba'zan tematik fonni ishlatish tavsiya etiladi. Semantik yukni o'tkazadigan ranglarning kombinatsiyasi (Masalan, shakar (ma'ruza biokimyosi kursi) bo'yicha ma'ruzada, skanerlangan mayda qand moddasining yuzasi fon sifatida ishlatilishi mumkin).

Axborotning hajmi va mazmuniga bo'lgan talablar: bitta slaydda uchta dalil, xulosa bo’lishi kerak.

Asosiy fikrlar har bir slaydda bir vaqtning o'zida aks etadi. Slaydlar matn yoki rasmlar bilan ortiqcha yuklanishga hojat yo'q. Slaydlarda ma'ruza matnini so'zma-so'z qayta chop etishdan qochish yaxshiroqdir - matn bilan ishlaydigan slaydlar hammasi yaramaydi. Agar bitta slaydda 2 dan 3 gacha chizilgan rasm bo'lmasa yaxshiroqdir, aks holda tinglovchilarning e'tiborini yo'qotadi.

Taqdimotda katta jadvallarni kiritish kerak emas: ularni tushunish qiyin - ularni jadvallar asosida grafikalar bilan almashtirish yaxshiroqdir. Agar muhim jihatni ko'rsatishingiz kerak bo'lsa, unda eng kerakli ma'lumotlarni berish uchun

imkon qadar kam qator va ustunlar qoldiring. Bundan tashqari, sizga kerakli shrift hajmini saqlab qolishga imkon qiling. Taqdimotlarning qulayligi tasviriy materiallarni namoyish etish imkoni yuqori, iloji boricha ko'proq suratlarni ko'rsatsangiz bo’ladi. Biroq, buni suiiste'mol qilmang.

Taqdimotda darsni nihoyasiga yetkazish kerak. Shu bilan birga, u ma'ruzaning asosiy qismiga aylanmasligi va dars materialini to'liq takrorlashi kerak emas. Ideal variant matn va taqdimotning kombinatsiyasi bo'lib, tinglovchilar ma'lumotlarning yetishmay qolgan qismini o'qituvchining aytgan so'zlaridan kelib chiqishi mumkin va aksincha, slaydlarda nimalarni tinglaganlarini eslab qolib, tushuncha hosil qiladilar.

Taqdimotda musiqiy ashulani ishlatmaslik kerak, chunki musiqa semantik yukni olib bormaydi, musiqa juda chalg'itadi va diqqatni tortadi - o'qituvchini va musiqani bir vaqtning o'zida tinglash qiyin. Aslida, animatsiya effektlari uchun ham amal qiladi: ular o'z-o'zidan tugatilishi kerak. Ko'proq turli effektlarni qo’llash yaxshiroq deb o'ylamang. Tez-tez ko'rinmaydigan tez ko'rinadigan va darhol yo'qolgan yozuvlar nafas olishdan boshqa narsa emas. Animatsiya yoki muayyan kayfiyatni yoki taqdimot muhitini yaratish uchun (bu holda, animatsiya ko'proq himoyalangan va yaxshi o'ylangan) yoki aks ettirilmaydigan dinamik jarayonlarni namoyish qilish (masalan, suratni asta-sekin namoyish qilish) uchun joizdir. Agar taqdimot faqat chop etish uchun mo'ljallanmagan bo'lsa, tasvirni ekran o'lchamiga (76 dyuymga), shuningdek, jpeg formatida joylashtirish mumkin. Bu taqdimot miqdorini kamaytiradi va ishni sezilarli darajada tezlashtiradi va soddalashtiradi.

Multimedia taqdimotini tayyorlashda pedagog internetdan foydalanishi mumkin. Taqdimotni yaratishda taqdim etilgan materiallar va tashqi axborot oqimlari imkon qadar ko'proq aloqa nuqtalarini topishingiz kerak. Bu sizga taqdimotni yanada qiziqarli va hayajonli qilish imkonini beradi.

Moslashuvchanlik muvaffaqiyatli taqdimotning asoslaridan biridir. Taqdimot davomida tinglovchilarning reaksiyasiga javoban o'zgartirishlar kiritishga tayyor bo'ling. Zamonaviy dasturiy ta'minot va jihozlar taqdimot

mazmunini osongina o'zgartirish va katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash imkonini beradi.

Taqdimot tayyorlash bosqichlari:

- birinchi va ikkinchi darajali asosiy g'oyalarni yoritib, taqdimot rejasini tuzish;

- muammoning bayonoti;

- oldindan ma'lum natijalar va muammolar;

- hal etish sifatini baholash mezonlari;

- ushbu ishning maqsadlari;

- muallifning asosiy natijalari;

- eksperimentlar natijalari;

- ohirgi slayd - ishning asosiy natijalari ro'yxati.

Har bir slaydni o'ylash (dastlab qog'ozda qo'lda bajarilishi mumkin), ammo savollarga javob berish muhim.

Ushbu slayd g'oyasi butun taqdimotning asosiy g'oyasini qanday namoyon etadi? slide nima bo'ladi? nima deyiladi? Keyingi slaydga o'tish qanday amalga oshiriladi? Quyidagi tizimlardan biridan foydalanib, taqdimot qilish lozim.

Taqdimotlardan foydalanish xayoliy ma'lumotlarni taqdim etishga yordam beradi, zamonaviy ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini beradi. Taqdimot har doim har qanday slaydda to'xtatilishi mumkin, axborotni muhokama qilish, ma'lumotni tahlil qilish, o'z xulosangizni chiqarishdir.

Taqdimot ilmiy-amaliy anjumanlar, turli tanlov va hozirgi innovatsion darslarning ajralmas qismidir. Taqdimotlarni tashkil etishda ma’lumot ulashuvchilar axborotni qidirish va tanlashda fanlararo ko'nikmalarga ega bo'lib, o'qitishda faol ishtirok etishadi va ommaviy nutqda tajriba orttirishadi. Elektron taqdimotlar tayyorlash bo'yicha tavsiyalar olishadi va qo’llab borishadi.

Yuqorida keltirilgan uslubiy tavsiyalar muhim bo`lib, xar qanday ma`ruzachiga aniq ijobiy natijalarni taqdim etadi. Tavsiyalar bo`yicha o`qituvchilar taqdimotlarni tayyorlash hamda dars mashg’ulotlarida ulardan darsning barcha bosqichida foydalanib loyihalasa, tashkil etsa diqqatni jalb etish, ko`rgazmalilik,

idrok etish, xotirada saqlab qolish kabi pedagogik-didaktik me`yorlar talablariga rioya etilgan bo’ladi.

XULOSA

Mashg'ulotlarni tashkil etish sifati o'quv materiallarni ko'rgazmali taqdim etishga, o'qituvchining jonli ovozi, uning obrazli bo'lishi, axborotlarni uzatishda yoki taqdim etishda turli zamonaviy texnik jihozlar, dasturlar va qo'llanmalardan foydalanish, shu jumladan taqdimot slaydlaridan samarali foydalanishga bog'liq.

Bu qo'llanmalar (taqdimot slaydlari) quyidagi didaktik imkoniyatlarga ega:

▪ darslarda axborotlar, bilimlar manbai;

▪ o'quv axborotlarni taqdim etish shakllarini tartiblaydi;

▪ ko'rgazmalilik darajasini oshiradi, tushunchalar, voqea-hodisalarni konkretlashtiradi;

▪ idrok etishni tashkillaydi va yo'naltiradi;

▪ o'quvchilarning tasavvurlarini kengaytiradi, ularning qiziquvchanligini qondiradi;

▪ o'quvchilarning o'quv matarialiga emotsional ijobiy munosabatlarini vujudga keltiradi;

▪ o'quvchilarni darslarga qiziqishini oshiradi, o'quv-bilish faoliyatlarini faollashtiradi;

▪ o'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash, umumlashtirish, tizimlash va bilimlar nazoratida vosita bo'lib xizmat qiladi va h.k.

Bularning barchasi darslarda elektron ilovalar, taqdimot slaydlaridan foydalanish didaktik xususiyatlari, ularni hisobga olish asosida amalga oshiriladi.

Yuqoridagi mazmunlar bitiruv ishi mavzusini tanlashda asos bo'lgan. Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, o'qitishni tashkil etishning vositalarini, shaklini va uslubiyotini yangilab va takomillashtirib borishda o'quv jarayoniga ilgor texnologiyalarni tadbiq etish, darslar uchun turli ta'lim vositalari, jumladan rasmlar, illyustrasiyalar tayyorlash yo'llari va uslublarini hamda ulardan ta'lim jarayonida foydalanish bo'yicha yondoshuvlarini ko'rsatib berildi. Quyidagi vazifalar bajarildi:

▪ Ko'rgazmalilik tamoyilini didaktik kategoriya sifatida o'rganib chiqildi;

▪ Power Point dasturida ishlash o'zlashtirildi;

▪ O’quv-tarbiyaviy jarayonda taqdimotlardan foydalanishning nazariyoti va uslubiyoti holatni aniqlandi;

▪ Atrofimizdagi olam darslarida taqdimot slaydlaridan foydalanishining uslubiy, psixologik-pedagogik xamda ilmiy-nazariy asoslarini o’rganib, aniqlab olindi;

▪ 1- sinf va 2-sinf atrofimizdagi olam darslari uchun taqdimotlar tayyorlandi;

▪ 1- sinf va 2-sinf atrofimizdagi olam darslarida taqdimot slaydlaridan foydalanish samaradorligini o’rganib, tekshirib ko`rildi;

▪ Bajarilgan ishlar tahlil qilindi va xulosalar qilindi;

▪ O`qituvchilarga taqdimot slaydlari tayyorlash va darslarda samarali foydalanish yuzasidan uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Hozirgi paytda, fan va madaniyatning eng so’nggi yutuqlari asosida kelajagimiz bo’lgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini izlash nihoyatda zarurdir. Pedagogik texnologiyalarning qo’llanilishi ta’limni samaradorligini oshirish, ta’lim oluvchi shaxsining ta’lim markazida bo’lishi va mustaqil bilim olishini ta’minlash, o’qitishning faoliyatli, rivojlantiruvchan, tashxislanuvchan va natijali bo’lishiga xizmat qiladi.

BMI natijalari o’rta umumta’lim maktablari boshlang’ich sinf o’qituvchilari atrofimizdagi olam darslari uchun ko`rgazmali ta’lim vositalaridan samarali va o’z o’rnida foydalanish uslubiy-tavsiyasini beruvchi hamda ishni bajarish davomida olingan xulosalar o’qituvchilarning kompetentligini oshirishda, shunigdek, o’qituvchilarning ta’lim vositalaridan, xususan Power Point dasturida tayyorlangan taqdimot slaydlardan foydalanish, shaxsiy bazasini to’ldirishda amaliy-uslubiy asos bo’lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

I. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari.

1. Mirziyoyev Sh.M. Ilm–fan yutuqlari – taraqqiyotning muhim omili. “Ma’rifat” gazetasi №: 104. 2016 yil 31 dekabr.

2. Mirziyoyev Sh.M., Tanqidiy tahlil, kat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo’ljallangan qtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017 yil 14 yanvar. - Toshkent: «O’zbekiston», 2017. - 104 b.

3. Mirziyoyev Sh.M., Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag’ishlangan Oliy Majlis palatalarining ko’shma majlisidagi nutq. Toshkent - «O’zbekiston» - 2016

4. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash-davr talabi. Asarlar, 5-jild. -T.: O’zbekiston, 1997. - 360 b.

II. Normativ-huquqiy xujjatlar.

1. O’zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. -T., 2014.

2. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni. O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 yil. 9-son, 225-modda.

3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 yil. 11-12-son, 295-modda.

4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 07.02.2017 y. PF-4947 O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida. "Xalq so’zi", 2017 yil 8 fevral.

5. Axborotlashtirish to’g’risida O’zbekiston Respublikasining Qonuni. O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2004 y., 1-2-son, 10-

modda; O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2014 y., 36-son, 452-modda

III. Maxsus adabiyotlar.

1. Abduqodirov A., Yaqubov S.X., Mamajonova G.X. “Informatika” Qisqa kurs. Toshkent ”O’qituvchi”, 2002.

2. Abduraxmonov B., Rafiqova O. Atrofimizdagi olam darsligi va undagi vizual axborotlar. Farg’ona vodiysi geograflari uyushmasining ilmiy–amaliy seminari materiallari. NamDU. Namangan. 2017. 136-138 bb.

3. Агеев В.Н. Современные электронные учебные издания: принципы организации и внедрения / В.Н. Агеев. –М.: МГУР, 2003. –236 с.

4. Александров Г.Н. Программированное обучение и новые информационные технологии обучения / Г.Н. Александров // Информатика и образование. –1993. –№ 5. –С. 7-24.

5. Апатова Н.В. Информационные технологии в школьном образовании. Ии-т общеобразоват. шк. рос. акад. образования; М.: Ип-г общеобразоват. шк. РАО, 1994.-228 с.

6. Ashurova N. «Hamkorlikda tabiatni muhofaza qilishga o'rgatish». Boshlang'ich ta'lim. 1-2-sonlar. 1995 yil.

7. Baratov P., G’ofurov A., Toshmuhamedov R. “ Tabiatshunoslik” Cho’lpon nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi. Toshkent -2006

8. Boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasi// Boshlang‘ich ta’lim, 1998, 6-son.

9. Gaziyev A. Multimedia resurslari – zamon ehtiyoji: [Milliy kutubxonada] // INFOLIB. – 2015. – № 1. – B. 56–57.pdf 150 Kb.

10. G'olipov E., Usmanov T.. «Ekologik tarbiya berish». Boshlang'ich ta'lim. 1-2-sonlar. 1995 yil.

11. Grigoryans A.G. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinfi uchun Atrofimizdagi olam darsligi. Cho‘lpon nomidagi nashriyot. 2014.

12. G‘ulomov P. va Mirzaxmatova Sh. **U**mumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2-sinfi uchun Atrofimizdagi olam darsligi. Cho‘lpon nomidagi nashriyot. 2010.

13. Grigoryans A.G. «Atrofimizdagi tabiat». Toshkent. «O'qituvchi». 1997 yil. 1-son.

14. Grigoryans A.G. «Atrofimizdagi tabiat». Toshkent. «O'qituvchi». 1997 yil. 2-son.

15. Grigoryans A.G. Raximova M.A.. «Atrofimizdagi olam». Toshkent. «O'qituvchi». 1997.

16. Душина И.В. Педагогические технологии обучения географии. «География в школе» -2001. -№3 –стр. 49-53.

17. Коган В.З. Человек : информация, потребность, деятельность/ – Томск: Изд-во Томск. ун-та, 1991. –191 с.

18. Коджаспирова Г.М. Технические средства обучения и методика их использования : учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений /Г.М. Коджаспирова, К.В. Петров. –М.: Академия, 2001. –256 с.

19. Matchonov S., G'ulomova X. va boshqalar. Boshlang'ch sinf o'qish darslarini pedagogik texhologiyalar asosida tashkil etish. - Toshkent: , "Yangiyul Poligraph servise", 2008.

20. Mahmudova M. Tabiatshunoslik ta'limida tarixiy adabiyotlar. 2002 y, Toshkent, 4-son 89-90 betlar.

21. Maqulova B.. «O'qishga qiziqishni oshirish». Boshlang'ich ta'lim. 3-4-sonlar. 1995 yil.

22. Munavvarov A.K.. «Pedagogika». Toshkent. «O'qituvchi». 1996 yil.

23. Ro'zmatov S.K. "Kompyuter savodxonligi". Toshkent, 2006 y.

24. Tayloqov N. Elektron darslik yaratishga qo'yiladigan talablar. Xalq ta'limi № 2. 2005. 17-20 bb.

25. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi.- Toshkent, 2010.

26. Hamdamov U.R., Elov J.B., "Kompyuter savodxonligi bo'yicha o'quv qo'llanma", Toshkent 2010 y.

27. Hasanboyeva O., Jabborova H., Nodirova Z.. "Tabiat bilan tanishtirish metodikasi" Cho'lpon nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi. Toshkent -2006

28. Safarova R. O'quvchilarning bilim sifatini oshirish. Xalq ta'limi № 1.2005y. 14-19 bet.

29. Solixov O. «Tabiatshunoslik darslari». Boshlang'ich ta'lim. 5-6-sonlar. 1992 yil.

30. Tayloqov N. Elektron darslik yaratishga qo'yiladigan talablar. Xalq ta'limi № 2.2005y 17-20 bet.

31. To'xliyev D. «Tabiat va ta'lim». Boshlang'ich ta'lim. 5-6-sonlar. 1992 yil.

32. Jo'rayev R.X., N.Tayloqov. Axborotlashgan ta'lim muxiti-o'qitish samaradorligini oshirish vositasi. Uzluksiz ta'lim № 3.2005y. 5-12 bet.

33. Фарберман Б.Л. Передовые педагогические технологии. Фан. Тошкент 2000.

34. Филатова Н.Б. Компьютер на уроке географии. География в школе. 2001 №2 -стр.51

35. Shojalilov A. Ta'limda pedagogik texnologiya. Toshkent, 2002 y, 6-son, 77-79 betlar

36. Yuldashev U., Boqiev R., Zokirova F. “Informatika”, Toshkent, “O’zbekiston”, 2002 y.

37. Yunusova G.N.. Axborot texnologiyalari muxitida fizika o'qitish nazariyasi va uslubiyoti.Uzluksiz ta'lim № 1.2005y. 17-29 bet.

IV. Internet manbalari

1. http://www.ziyonet.uz
2. http://www.edu.uz
3. http://www.techsmith.com
4. http://www.mytube.uz
5. http://www.google.com
6. http://www.yandex.ru
7. http://www.lex.uz
8. http://www.connect.uz

9. http://www.e-biblioteka.namsu.uz
10. http://www.tdpu.uz
11. http://www.geo-mes.ru

Mundarija:

Kirish……3

I-bob. Atrofimizdagi olam darslarida ta'lim vositalaridan foydalanishning pedagogik-psixologik asoslari……..…….7

1.1 Atrofimizdagi olam darslari maqsadi va vazifalari, darslikdagi visual axborotlar tahlili……..……..…..7

1.2.O'quv-tarbiyaviy jarayonlarda kompyuter dasturlaridan foydalanish……..…25

1.3. Darslarda taqdimotlardan foydalanish holatini o`rganish……..…..…40

Ii-bob. Atrof olam darslari uchun taqdimotlar tayyorlashning uslubiy jihatlari…….……46

2.1. Atrofimizdagi olam darslari uchun taqdimotlar tayyorlash……...…46

2.2. Olib borilgan anketa-so`rov ishlari va natijalar tahlili……57

2.3. Taqdimotlar tayyorlash bo'yicha uslubiy maslahatlar…….62

Xulosa…….....….70

Foydalanilgan adabiyotlar……72

Ilovalar……...77